

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Qo'l yozma huquqida
UDK: 336.71**

MAXMUDOV SHAROFIDDIN MASARITDINOVICH

**INNOVATSION RIVOJLANISHNI MOLIYAVIY TA'MINLASHDA
BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNING
O'RNI**

Mutaxassislik: 5A230102 – Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar _____

i.f.n., dots. D. Djumonov

TOSHKENT – 2017

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

dots. D. Djumonov

Kafedra mudiri

dots. D. Djumonov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	4
I-BOB	INNOVATSION RIVOJLANISHNI MOLIYAVIY TAMINLASH YO‘LLARI	10
1.1.	O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishni moliyaviy taminlashning nazariy huquqiy asoslari.	10
1.2.	Bank kapitalining etarlilik darajasini tartibga solishning nazariy huquqiy asoslari	22
1.3.	Bank kapitalining etarlilik darajasini baholash yollari	29
II-BOB	RESPUBLIKADA BANK KAPITALLASHUV DARAJASINI BAHOLASH USULLARI	37
2.1.	Banklarining kapitallashuv darajasini Camels xalqaro reyting tizimi orqali baholash tahlili	37
2.2.	Banklarining kapital bazasini oshirish orqali inovatsion rivojlanishni moliyaviy taminlash yo‘llari	44
III-BOB	INNOVATSION RIVOJLANISHNI MOLIYAVIY TA‘MINLASHDA BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI	57
3.1.	Banklar kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi talablari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	57
3.2.	O‘zbekistonda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda xorij tajribalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari	64
	Xulosa va takliflar	77
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	82

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'рни va nufuzini yanada oshirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda har bir davlat o'z iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda innovatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda.

Shu maqsadda respublikamizda «... iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni ...»¹ amalga oshirishga ustuvorlik berilgan. Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish investitsiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish imkonini beradi. Shu sababli mamlakatimizda innovatsiya siyosatini olib borishda investitsiyalarning samarali ishtirokini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqdaki, buning natijasida milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, ular yordamida ishlab chiqarishga joriy etilayotgan zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihalarning sonining yil sayin ortib borishini, shuningdek, yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda banklarning faolligini oshirish ham asosiy manbaa hisoblanadi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini

¹ Каримов И.А. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг ёъл очиб бериш – устувор вазифамиздир. // —Тошкент окшоми газетаси, 2015 йил 20 январь, №11. — Б. 2-3.

xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2014 yilda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi².

Biroq, bugungi tezkor o'zgarish va yangilanishlar davrida mazkur yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, yangidan-yangi, bugungi hayotimiz talabiga asoslangan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Tadqiqot ob'ekti bo'lib innovatsiya faoliyatining asosi bo'lgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsiya loyihalari hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti bo'lib, innovatsion loyihalarni bank kapitali orqali moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar va banklarning kapitallshuv jarayonini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda banklar kapitallashuv darajasining o'rnini aniqlash hamda banklar kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilab olindi:

²Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 19.

- innovatsiya loyihalarining mazmuni va ularni ishlab chiqishning nazariy asoslarini o'rganish va innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslarini aniqlash;
- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Banklarning kapitallshuv darajasini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;
- O'zbekistonda banklarning innovatsion faoliyatni moliyalashdagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish.
- tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirish va etarliligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;
- respublikamiz tijorat banklari kapitallashtirish darajasining o'zgarishiga xos tendensiyalarni aniqlash;
- tarakkiy etgan mamlakatlar tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uning miqdorini oshirish borasidagi ilg'or tajribalarini umumlashtirish va ulardan respublikamiz amaliyotida ijobiy foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish va shuning asosida innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni rivojlantirishga erishishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Innovatsiya faoliyati, uni tashkil etish, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va

moliyalashtirish, boshqarish hamda u bilan bog‘liq xorij tajribalari yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan ko‘plab xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Jumladan, Y.Shumpeter, I.T.Balabanov, A.B.Borisov, V.G.Medinskiy, V.V.Glushchenko, I.I. Glushchenko, V.L.Popova, A.N.Folomev, V.V.Glushchenko, I.I.Glushchenko, V.F.Baynev, V.V.Saevichlar ilmiy-tadqiqotlarini olib borganlar va asarlarini yaratganlar.

Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy asoslari, uni moliyalashtirishning ahamiyati, milliy xususiyatlari va amaliyotiga oid masalalar mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan A.Simanovskiy, V.Usoskin, D.Polfreman, G.Beloglazova, J.Sinki, O.Lavrushin, E.Dolanlar³ning ilmiy ishlarida urganilgan. R.I.Gimush, F.M.Matmurodov, B.E.Toshmurodova, N.Jiyanova, D.X.Suyunov, M.N.Ravshanov, M.SH.Butabaev, E.Egamberdiev, X.Xo‘jaqulov, D.G‘.G‘ozibekov, AE.I.Nosirov, A.M.Kadirov, S.G.Sevlikyants, O.E.Otto, A.T.Axmedova, B.Mamatov, D.Xo‘jamqulovlarning ilmiy ishlari va asarlarida tadqiq etilgan va yoritilgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tasnifi. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, sintetik, qiyosiy, induktiv, deduktik, mantiqiy va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g‘oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish va unga oid kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan

³ Долан Э. и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер. с англ. - М., Ленинград, 1991. - 446 е., Финансы и кредит. Учебник. Под ред. Белоглазовой Г.Н. - М., Юрайт-Издат, 2003. - 575 е., Банковское дело. Учебник. Под ред. Лаврушина О.И. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 672 е.; Рид Э., Коттер Р. Коммерческие банки. Пер с англ. - М., Космополис, 1991. - 478 с. 47., Синки Дж. Управление финансами в коммерческом банке. М. Инфра, 1995. - 820 с.

ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" va "Investitsiya loyihalarini boshqarish" kabi fanlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- innovatsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati tadqiq etildi va uning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati ochib berildi;
- innovatsiya loyihalarining mazmuni yoritildi va ularni ishlab chiqishning nazariy asoslari o'rganildi;
- innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslarini yoritildi;
- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilindi;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilindi;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi
- O'zbekistonda banklarning innovatsion faoliyatni moliyalashdagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, birinchi bobda xizmat ko'rsatish sohasi va uning bandlikdagi o'rni yoritilgan, ikkinchi bobda respublikada xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligining holati

tahlili amalga oshirilgan hamda so‘ngi bobda xizmat ko‘rsatish sohasining aholi bandligini oshirishdagi ahamiyatini oshirish masalalari baholanib, istiqbolli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

I-BOB. INNOVATSION RIVOJLANISHNI MOLIYAVIY TAMINLASH YO‘LLARI

1.1. O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishni moliyaviy taminlashning nazariy huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublika mustaqillikka erishgan davrdan boshlab iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiyalash hamda uning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida olib borayotgan faol iqtisodiy siyosati tarkibida innovatsion yuksalish masalasi muhim o‘rin egallab kelmoqda. Shu munosabat bilan ushbu sohani tubdan isloh qilish va rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilib, dastavval, uning zamonaviy tashkiliy-huquqiy asosini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida belgilab olindi. Binobarin, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan, xususan, mahalliy xom ashyolarni qayta ishlash asosida jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan innovatsiya loyihalari bajarish bilan respublikamizning barcha ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim institutlari kafedralari, ilmiy bo‘limlari shug‘ullanib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash va zamonaviylashtirish, ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish borasida qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar ham mavjud edi. Shuning uchun bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng muhim vazifa huquqiy asosni barpo etishdan iborat hisoblanar edi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mamlakat iste’mol bozorining talablarini to‘laroq qondirish olib borilayotgan investitsiya va innovatsiya siyosatiga bog‘liq. Dastlab mustaqil mamlakatda innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992 yil 7 avgustdagi —”Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni asos soldi.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, uni amaliyotga qo‘llash xorijiy 39 ekspertlar ishtirokida xalqaro seminarlarda, ularning tajribalariga asoslangan holda sinovdan o‘tkazilmoqda. Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni

davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, beg‘araz muruvvat va texnik yordam sifatida hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi xalqaro bitimlar doirasida O‘zbekiston Respublikasiga beriladigan xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg‘armalar grantlari bo‘yicha bajariladigan ilmiy-texnikaviy va innovatsiya dasturlarini va loyihalarini muvofiqlashtirishni va ularning monitoringini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 yanvardagi —Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg‘armalar grantlari bo‘yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi 31-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq 1998 yil 1 yanvardan boshlab:

- xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg‘armalar grantlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida bajarilayotgan ilmiy-texnikaviy va innovatsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirish doirasida;

- ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha xalqaro bitimlar doirasida etkazib beriladigan asbob-uskunalar (priborlar, materiallar, axborot va tashkiliy-texnika tizimlari va vositalari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi ko‘rsatib o‘tilgan asbob-uskunalarining ajratilgan grantlar maqsad va vazifalariga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi asosida bojxonada rasmiylashtirishda undiriladigan bojxona poshlinasi, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsiz solig‘i to‘lashdan ozod etildi.

O‘zbekiston Respublikasida innovatsiya faoliyatlarini rivojlantirish yo‘lida ko‘p ijobiy ishlar qilingan. Ammo bu amalga oshirilayotgan innovatsion ishlar ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasini iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar talablariga to‘liq javob bermayotganligi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi “Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni takomillashtirish” to‘g‘risidagi Farmonida ilmiy-texnikaviy faoliyatni tashkil 40 etishning yangi strukturasi tavsiya qilingan. Unda ilmiy-tadqiqot

ishlarini va innovatsiya loyihalarini takomillashtirish zarurligi va grantlar orqali tanlov asosida moliyalashtirish zarurligi ko'rsatilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari dasturini qisqa, o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish zarurligi belgilangan. Uzoq muddatli 5 yilga belgilangan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari asosida tabiat va jamiyat rivojlanishining yangi yo'nalishlarini nazariy jihatdan aniqlash asosida amaliyotga o'tish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lsa, 3 yillik ilmiy ish rejalarida fundamental tadqiqot ilmiy ishlarini olib borish asosida yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish asosiy maqsad qilib olinadi. Qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot ishlari asosan 2 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etib, uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonining raqobatdoshligini oshirish asosida ilmiy yangiliklarni nafaqat ichki bozorda balki tashqi bozorga ham mahsulotlarni eksportlik xususiyatlarini amalga oshirish hisobiga erishishdan iborat.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda, mamlakatni demokratik yangilashda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan Ilmiy-tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish ilmiy jamoalar ijodiy faolligi rag'batlantirilishini, ularning sa'y-harakatlari real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilinishini, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb masalalari hal qilinishini, ularning ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarga qaramay, ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasi ortib borayotgan talablarga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar sur'atlariga to'liq javob bermaydi. Ilmiy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy-texnika ishlarini 41 moliyalash mexanizmi tubdan qayta qurilishi lozim. Davlat ilmiy-

texnika dasturlari, loyihalar iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari rivojlanishi uchun mas'ul vazirliklar va idoralarning faol ishtirokisiz, chuqur va har tomonlama ekspertizasiz, olimlar, mutaxassislar tomonidan keng muhokama qilinmay shakllantirilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Ilmiy-texnika tadqiqotlari natijalarini amaliyotga joriy etishga oid ishlarning ahvoli ham qoniqarsizligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori qabul qilindi. Bu Qarorda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi kamchiliklar keltirilgan:

- ilmiy-texnika dasturlari, loyihalari tegishli muassasalar, olimlar, mutaxassislar tomonidan chuqur tahlil qilinmasligi;
- moliyaviy mablag'larni tor doirada ekspertlar xulosasi asosida taqsimlanishi;
- ilmiy mavzularning maydalanishi va takrorlanishi;
- ilmiy innovatsiya ishlarining olib borish moddiy texnika bazalariga etarli darajada asoslanmaganligi, ilmiy muassasalar, bo'limlar va oliy o'quv yurti kafedralarining ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi markazga aylanmaganligi;
- ilmiy va investitsiya loyihalarini Fan va texnologiya markazi o'rtasida hamkorlik darajasining talabga javob bermasligidir.

Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi

tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: 42 - mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish vazifalari, zamonaviy fan yutuqlari hisobga olingan holda Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan birga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- vazirliklar va idoralarning ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, Fanlar akademiyasining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

- ilmiy-texnika dasturlari amalga oshirilishini, shuningdek ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari iqtisod, ishlab chiqarish, ta'limning turli sohalarida qo'llanilishini samarali monitoring qilishni tashkil etish;

- ilmiy-texnika sohasida o'zaro foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakat ilm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarining xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlarida qatnashishi uchun ko'maklashish.

Ushbu qo'mita faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa vazirlik va idoralarning ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari tomonidan fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan ilmiy-texnika dasturlari asosida olib boriladi;

- davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, homiylardan tushgan mablag'lar va xo'jalik sub'ektlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomalardan tushgan mablag'lar moliyalash manbalari hisoblanadi;

- davlat byudjeti mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni

saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, etakchi tadqiqot markazlariga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalariga ega 43 bo‘lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga ajratiladi;

- Innovatsiya fan-texnika faoliyatini moliyalashtirish jamg‘armasini shakllantirish uchun mablag‘ vazirliklar, idoralar, xo‘jalik hisobidagi tuzilmalardan kelib tushadigan mablag‘lar, xalqaro grantlar, tijorat banklari va xorijiy moliya institutlarining maqsadli imtiyozli kreditlari bilan bir qatorda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan davlat byudjetidan ajratiladi;

- Fanlar akademiyasi, vazirliklar va idoralar tadqiqot va innovatsiya ishlari uchun ajratiladigan byudjet mablag‘larini ilmiy-tadqiqot, ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek amalga oshiriladigan ilmiy-texnika loyihalariga ilmiy-texnika loyihalari ekspertizalari natijalariga qarab tanlov asosida mustaqil taqsimlaydi.

Xo‘jalik sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkonini beradigan ilg‘or zamonaviy uskunalar bilan ta’minlashga qaratilgan samarali rag‘batlantirish tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3860-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga innovatsiya loyihalarini amalga oshirishni rag‘batlantirishga omili sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga besh yil mobaynida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga, yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi qurilish shaklida ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni

qaytarishga, lizing ob'ekti qiymatini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida, tegishli soliq davrida amortizatsiya ajratmalarini chiqarib tashlagan holda, ammo soliqqa tortiladigan daromadning 30 foizidan oshmaydigan miqdorda foydadan 44 olinadigan soliq bazasini kamaytirish huquqi berildi. Shuningdek, ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig'idan ozod etildi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladigan yuridik shaxslar uchun besh yil davomida yagona soliq to'lovi to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etildi. Ushbu Farmonda ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari mazkur xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik uskunalar bo'yicha esa – navbatdagi hisobot soliq davrida uskunalar ishga tushirilgan paytdan boshlab qo'llaniladi.

2007 yil 1 apreldan boshlab olib kiriladigan texnologik jihozlar qonunchilikda ko'zda tutilgan bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan texnologik jihozlar ro'yxatiga muvofiq qo'llaniladi.

Texnologik jihozlarni olib kirishda qo'llaniladigan imtiyozlar, agar texnologik jihozlarni etkazib berish bo'yicha shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, butlovchi va ehtiyot qismlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Biroq, texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, qayd etib o'tilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi bekor qilinadi, byudjetga tegishli soliqlar to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi. Texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi va byudjetga bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar yaratish, fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta'minlash maqsadida, 45 shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu Qarorga muvofiq Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi har yili o'tkaziladi va Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi zimmlariga yuklatildi.

Ushbu farmon asosida Xo'jalik boshqaruvi organlari va korxonalarning modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasi tashkil etildi.

Ushbu farmonga asosan 2013 yil 1 yanvarigacha o'quv va ilmiy-tadqiqot korxonalari va tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari foydada soliq to'lovidan, yagona soliq to'lovidan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)dan va davlatning maqsadli fondiga majburiy to'lovlardan (yagona ijtimoiy to'lovlardan tashqari) amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini xo'jalik sub'ektlari bilan xo'jalik bitimlari asosida ishlovchi sub'ektlar ozod qilinishi belgilangan. Shuningdek, Ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta jihozlash va to'liq jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida olib kelinadigan uskunalar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni

rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarorini bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 15 oktyabrdagi "Texnologiyalar transferi agentligi davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 228-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, 46 Davlat mulki qo'mitasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining "Texnologiyalar transferi agentligi" davlat unitar korxonasini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish;
- innovatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, xorijiy innovatsiya texnologiyalarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish, moslashtirish va mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish;
- ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat sotuvi ob'ekti sifatida ishlab chiqarishga joriy etish loyihalarini tuzish va amalga oshirish;
- ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish sohasida xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni amalga oshirish.

Shuningdek, qarorga ko'ra, ushbu Agentlik o'z faoliyatini moliyalashtirish Agentlikning o'z mablag'lari va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Innovatsiya loyihalari ishlab chiquvchilarini, shuningdek, Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi doirasida tanlab olingan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqarishga tadqiq qilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 maydagi "Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etishni rag'batlantrishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-sonli Qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror asosida:

1. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va Iqtisodiyot vazirligining grant sifatida 400 mln. so'm miqdorida mablag', shu jumladan keyinchalik ularni innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchilarga, shuningdek Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika 47 yarmarkasi yakunlariga ko'ra innovatsion ishlanmalarni tadbiq etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berish uchun Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va korxonalarni tarkibiy o'zgartirish jamg'armasi hisobiga – 300 mln. so'm hamda Savdo-sanoat palatasi hisobiga – 100 mln. so'm ajratildi.

2. Innovatsion ishlanmalarni tanlab olish va ularni moliyalashtirish (qo'shimcha moliyalashtirish) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-916-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasini o'tkazishni Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish:

- innovatsion ishlanmalarni tugallashga, tajriba sanoat namunalarini yaratishga, dastlabki loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek ularni davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga tatbiq etishga grant mablag'lari ajratish moliyalashtirish shartlarida amalga oshiriladi;

- innovatsion ishlanmalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat sifatida tatbiq etishga grant mablag'lari ajratish tatbiq etish

qiymatining 70 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha moliyalashtirish shartlarida amalga oshiriladi;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda patentlar, litsenziyalar va/yoki amaliy faoliyatda innovatsion ishlanmalardan foydalanish xavfsizligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarning mavjud bo‘lishi innovatsion ishlanmalarni tanlab olishning asosiy shartlari hisoblanadi;

- har bir aniq holatda grantlar ajratish shartlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi 48 (grant beruvchi) bilan innovatsion loyihalar ishlab chiquvchilar hamda innovatsion loyihalarni tatbiq etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlarda belgilanadi.

Grant mablag‘larini ajratishda quyidagi asosiy shartlar belgilangan:

- patent va litsenziyalarning mavjudligi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga sofinansirovanie mavjudligi;
- amaliy faoliyatda innovatsion ishlanmalardan foydalanish xavfsizligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarning mavjudligi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligini tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli Qarori O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi va O‘zbekiston Mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi “Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1536-sonli Qarorini bajarish yuzasidan qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyundagi 166-sonli Qaroriga muvofiq Intellektual mulk agentligini moliyalashtirish manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byujdeti mablag‘lari;

- patent bojlari, asarlarni va turdosh huquqlar ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov tushumlari hisobiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'lar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Intellectual mulk agentligi yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega bo'lib, o'z hisob raqamlariga ega bo'lgan hamda O'zbekistonda mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida bir qancha innovatsiyalar va ilmiy texnik faoliyatning tartibga soluvchisi me'yoriy-huquqiy xujjatlar ishlab chiqilgandir. Shulardan: 2008 yildagi "Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni, 15 iyun 2008 yilda «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2010 yilda "Respublika loyiha-tadqiqot tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ishlab chiqilgandir. Davlat innovatsion siyosatining eng muhim tamoyillari quyidagilar sanaladi:

- mahalliy ilmiy salohiyatga tayanish;
- ilmiy ijod erkinligi, ilmiy sohani izchil demokratizatsiyalash,
- ilmiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda ochiqlik va oshkoralik;
- fundamental ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishini rag'batlantirish;
- mamlakatdagi etakchi ilmiy maktablarni saqlab qolish va rivojlantirish;
- fan va texnika sohasida sog'lom raqobat va tadbirkorlik uchun sharoitlar yaratish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

- mamlakatning milliy xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta'minlash maqsadida ilmiy tadqiqot va loyihalarni tashkil qilish uchun sharoitlar yaratish;
- fan va ta'limni integratsiyalash, barcha pog'onada malakali ilmiy kadrlar tayyorlash to'laqonli tizimini rivojlantirish;
- tadqiqotchilar, tashkilotlar va davlatning intellektual mulk huquqini himoya qilish;
- ochiq axborotlarga qiyinchiliksiz ulanishni va uni erkin ayirboshlash huquqini ta'minlash;
- mulkchilik shakli xilma-xil bo'lgan ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarini rivojlantirish, kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- fan yutuqlaridan keng foydalanish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan fan-texnika yutuqlari keng tarqalishiga ko'maklashish;
- ilmiy mehnat nufuzlilikini oshirish, olimlar va mutaxassislar uchun turmush va ish sharoitlari yaratish;
- zamonaviy fan yutuqlarini, ularning O'zbekiston kelajagi uchun ahamiyatini targ'ib qilish.

Innovatsion siyosatning negizlari mamlakatdagi real, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vaziyatga mos keladigan iqtisodiy qonunlar to'plamini qabul qilish yo'li bilan asos solinadi. Boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari aynan ularda belgilab qo'yilgan.

1.2 Bank kapitalining etarlilik darajasini tartibga solishning nazariy huquqiy asoslari

O'zbekistonda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash darajasining taboro takomillashuvi banklarning kapitallashuv darajasini doimiy ravishda oshirib borishni talab etmoqda. Tijorat banklari kapitali

miqdorining oshirilishi ularning moliyaviy barqarorligini taminlash bilan birga, iqtisodiyotning real sektorini kreditlashdagi imkoniyatlarini oshirishga va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga bevosita ijobiy tasir ko'rsatadi.

Ma'lumki, tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishning asosiy yo'llaridan biri, bank aksiyalarini yuridik va jismoniy shaxslarga sotishdan tushadigan mablag'lardir. Respublikamiz tijorat banklari ustav kapitalini ko'paytirishda ushbi manbadan faol tarzda foydalanmoqda. Natijada, yirik capital mablag'larga ega bo'lgan tijorat banklarining soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Umuman olganda shu yillar mobaynida respublikamiz tijorat banklari regulativ kapitalining ko'payishi evaziga yirik kapitalga ega bo'lgan banklar sonining ko'payib borishi ijobiy holat hisoblanadi. Shuning uchun ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish aholining, bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan ekanligini inobatga olib, hukumat tomonidan banklarning kapitallashuv darajasini oshirish masalasiga alohida etibor qaratilmoqda.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 19 dekabrda "Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni banklar kapitalini oshirishga huquqiy asos yaratdi. Mazkur farmonga ko'ra, 2007 yilning 1 yanvaridan 2010 yilning 1 yanvarigacha yuridik shaxslarning tijorat banklari aksiyalaridan dividend sifatida olingan daromadlarning soliq solishdan ozod etilishi, shuningdek ularning foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha soliqqa tortish bazasi birlamchi va qo'shimcha ravishda chiqarilgan tijorat banklari aksiyalarini harid qilishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga teng miqdorda kamaytirilishi belgilab qo'yildi. Bu farmonning qabul qilinishi:

-birinchidan, tijorat banklariga ustav kapitalini ko'paytirish uchun muomalaga chiqargan aksiyalarini sotish orqali capital miqdorini ko'paytirish imkoniyatini bersa:

-ikkinchidan, yuridik shaxslar olgan dividendlari hisobidan soliqlarning to'lamasligi va bank aksiyalarini sotib olishga yo'naltirgan mablag'lari summasini soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlashi natijasida ikki tomonlama iqtisodiy manfaatdorlikka erishadi.

Tijorat banklari kapitalining shakllanish amaliyoti va manbalari yuzasidan amalgam oshirilgan tahlillar natijasida ularning regulyativ kapitali tarkibida ustav kapitalining ulushi nisbatan pastligi bilan birga, uning miqdori sezilarli ravishda tebranib turganligi ma'lum bo'ldi.

Bizning nazarimizda tijorat banklarining regulyativ kapitali tarkibida ustav kapitalining hajmining oshirishga erishish lozim. Chunki, banklarning ustav kapitali boshqa manbalarga nisbatan moliyaviy barqaror manbalardan biri bo'lib, uning hajmi pasayishi banklarning moliyaviy mustahkamligi zaiflashishiga olib keladi.

Tijorat banklarining ustav kapitali boshqa manbalarga nisbatan yuqori barqarorlikka ega bo'lib, banklarning regulyativ kapitali uning miqdori kamayishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Banklarning jami passivlar tarkibida mazkur kapital manbasining ulushi 1999 yil 1 yanvar holatiga 4,02 foiz. 2007 yil 1 yanvar holatiga 3,0 foizni tashkil etgan. Keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish va aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashda ularning ustav kapitali hajmini oshirish o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Aynan, shunday holatlar yuzasidan ijobiy natijalarga erishish va tijorat banklarining iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarini amalgam oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda keng ishtirok etishni yanada jonlantirish maqsadida 2007 yil 12 iyulda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Banklar kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni

modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-670-sonli Qarori qabul qilindi.

Yuqorida qayd etilgan qarorga binoan, Markaziy bankning davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan foydasining bir qismi "Mikrokreditbank", "Agrobank", "Ipotekabank", "Xalq bank"larning ustav kapitaliga yo'naltirish orqali ularning moliyaviy barqarorligi mustahkamlandi. Shu bilan birga, mazkur qarorga asosan tijorat banklari ustav kapitalini oshirish yuzasidan bir qator soliq imtiyozlari berildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jahon tajribasiga ko'ra har qanday bankning salohiyati, eng avvalo uning kapitali, resurs bazasi va aktivlari salmog'i bilan baholanadi. Bankning resurs bazasi esa asosan bank kapitali hamda yuridik va jismoniy shaxslarning banklardagi depozitlaridan tashkil topadi. Bundan ko'rish mumkinki, mamlakatimizdagi har bir fuqaro, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt eng asosiy sarmoyador hisoblanadi. Ularning banklardagi mablag'lari qancha ko'p bo'lsa, bankning kredit berish, investitsiya qilish salohiyati ham shunchalik kuchli va mustahkam bo'ladi. Tijorat banklari kapitali manbalari turli-tuman bo'lib, uning tarkibida bank aksiyadorlari tomonidan shakllantiriladigan ustav kapitali muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Tijorat banklari kapitali uning faoliyati davomida barqaror moliyalashtirish manbai va o'ziga xos himoya vositasini bajaradi. Shu boisdan ham tijorat banklari kapitali barqarorligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanib, ushbu masala AQSHdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yana bir marta to'liq isbotlandi. Chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida banklarning kapitali ma'lum darajada himoya vositasini bajardi, biroq ularning kapitali manbalari barqaror mablag'lardan shakllantirilmaganligi sababli ko'plab banklarni inqiroz holatiga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Takidlash lozimki, hukumatimiz tomonidan banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar ularning moliyaviy barqarorligini taminlashda muhim omil bo'lmoqda. Shu bilan birga, bank

amaliyotining xalqaro va mahalliy tajribalaridan ma'lumki, tijorat bankining kapitalini oshirish borasida qator imkoniyatlar mavjud. Xususan:

-Markaziy bank tomonidan uzoq muddatli subordinar kreditlarni berish orqali banklar kapitalini oshirish bilan birga, respublikamizda monetizatsiya koeffitsientining oshishiga va tijorat banklarining real sektorini kreditlashga yo'naltirilayotgan mablag'lari hajmining ortishiga olib keladi;

-banklarning qarz aksiyalarini muomalaga chiqarish orqali ularning kapitallashuv darajasini oshirish zarur. Halqaro bank amaliyotida tijorat banklari o'zining uzoq muddatli resurslariga bo'lgan talabini qondirishda taminlanmagan obligatsiyalarini muomalaga chiqaradi. O'zbekiston tijorat banklari tarkibida muddati jihatdan "uzun" mablag'larning mavjud emasligi inobatga oladigan bo'lsak qarz aksiyalarining muomalaga chiqarilishi banklar kapitallashuv darajasini oshirishda muhim moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Bank ishi nazariyasining eng katta tortishuvlarga sabachi bo'lgan savollardan biri bank kapitalining miqdorini aniqlashdir. Ko'plab diskussiyalar: kim bank kapitali standartlarini o'rnatishi kerak – bozormi yoki tartib solish organlarimi? bank kapitalining maqsadga muvofiq miqdori qancha? kabi muammolarga bahishlandi.

Bank kapitalini baholashga tartibga solish no'qtai nazaridan yondashish.

Kapitalni tartibga solishning sabablari. Ko'p yillar davomida bank kapitalining miqdori qat'iy tartibga olinib kelinadi. Banklar davlat ro'yxatidan o'tkazilish paytida va butun faoliyati davrida ustav kapitalining majburiy minimal miqdorini ta'minlashlari shartdir. Tartibga solish organlari shuningdek, kapitalning maqsadga muvofiq turlarini ham belgilashadi.

Bank kapitali miqdorining tartibga solinishining sabablari quyidagilardir:

1. Banklarning bankrotlik riskini chegaralash.
2. Jamiyatning banklarga bo'lgan ishonchini saqlash.
3. Banklarning bankrotligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlat organlari va aholining yo'qotishlarini chegaralash.

Tartibga solishning nazariy asoslari «bozor bu uch masalani bir vaqtning o'zida hal qilishi mumkin emas» degan tushunchasi bilan bog'liq. Bozor alohida olingan bankning bankrotlik holati bank tizimiga qanday ta'sir o'tkazishini va davlat hamda aholining yo'qotishlarini aniq baholash imkoniyatiga ega emas.

Mijozlar oldidagi ishonchning yo'qotilishi bankning qisqa muddatli majburiyatlari (ayniqsa talab qilgunga qadar depozitlar) tezkorlik bilan omonatchilar tomonidan olinishiga olib keladi. Diyarli hech qanday bank omonatlarning ommaviy olinishi holatida darhol kredit portfelini likvidatsiya qilish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, ba'zi bank boshqaruvchilari o'z risklarining boshqa bank mijozlariga ta'sirini diyarli hisobga olishmaydi.

Bank depozitlarini sug'urtalashning salbiy jihatlaridan biri, u omonatchilarning banklarning ishonchliligi va risklarini tahlil qilishga qaratilgan harakatlari darajasini pasaytirib yuboradi. O'zlarini to'liq himoyalangan deb hisoblovchi omonatchilar, bank duch kelayotgan risklarni baholamaydilar hamda ishonchliroq banklarga mablag'larini o'tkazish ko'rinishida ularni «jazolamaydilar».

Tadqiqotlar natijalari. So'nggi yillar davomida banklar o'z zimmlariga oladigan risk va bank kapitalining miqdori to'g'risidagi qaror qabul qilinishiga kim ko'proq ta'sir o'tkazadi – raqobat bozorimi yoki tartibga solish organlarimi – masalasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. bu tadqiqotlarning natijalari turli xilda, lekin ularning asosiy qismi bank kapitalining miqdori va turiga tartib solish organlari emas, balki bozor o'z ta'sirini o'tkazishini isbotladi. Ammo bugungi kunga kelib, kapitalni tartib solish va kapitalning minimal miqdoriga qo'yilgan qat'iy talab oqibatida, davlat tomonidan tartibga solish (bozor tomonidan muvofiqlatirilishi kabi) masalasi muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Odatda moliya bozori, bank risklarining turli darajasiga qarab, riskli banklarning majburiyatlari va aksionerlik kapitali qiymatining kamayishi ko'rinishida javob beradi. Ammo bank aksiyalarining ochiq bozor aylanmasiga faol jalb qilinmaganligi, moliyaviy bozorning banklar faoliyatini tartibga

keltirishdagi ta'sirini chegaralab qo'yadi. Shuningdek, bozor faqat mavjud ma'lumotlardan foydalanadi, riskning haqiqiy darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan eng muhim ma'lumotlar bozordan «yashirinib» qoladi va faqat banklarning o'ziga va nazorat organlarga ma'lum bo'ladi.

Haqiqatda ham bank kapitali va aktivlar o'rtasidagi nisbat bankrotlik bilan bog'liqmi? Ko'pchilik taqiqotlar ahamiyatli bog'liqliklarni aniqlay olmadi. Kapitalning ko'payishi bankrotlik riskini kamaytirmaydi. Ko'pchilik banklarning kapitali ikki yoki uch barobar oshgan holda ham bankrotlikdan qutila olmasdilar. Kapital miqdorining minimal darajasini belgilanishi bank risklari darajasini kamaytishiga olib kelmaydi. Banklar kapital miqdoriga qo'yilgan qat'iy talablarni qondirgan holda, daromadlilik darajasini oshirish uchun faoliyatning boshqa jabhalarida o'z zimmalariga ko'proq risklarni olishlari mumkin.

Bank kapitalini tartibga solishning muammolari. Hozirgi paytda bank kapitalini tartibga solish o'tish davrida turibdi deyishimiz mumkin. Albatta, barcha banklar uchun kapitalning minimal miqdorini o'rnatishga asoslangan strategiya, tartibga solish organlari uchun boshqaruvning eng oson usuli hisoblanadi. Ammo kapitalning adekvatligini ta'minlashning bu oddiy usulida ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar mavjud. Kapitalning minimal miqdorini o'rnatish tizimi omonatchilar tomonidan depozitlarni ommaviy tarzda qaytarib olish (depozitlarini yo'qotayotgan bank to'lovga qobil bo'lishiga qaramasdan) jarayonini tezlashtirishi mumkin. Bu qanday amalga oshadi? Mijozlar bankning kapitali (bankning kapitalizatsiya darajasining etarli adekvatligi saqlangan holda ham) belgilangan darajadan kamayishi holatiga, depozitlarini likvidatsiya qilish bilan javob berishadi.

Boshqa muammo, bank faoliyatida alohida bankning kapitalini tavsiflovchi ko'rsatkich haqiqatda nimani anglatishi mijozlar tomonidan to'liq tushinilmasligidir. Masalan, banklar o'z kapitalining o'rnatilgan minimal darajasiga ega bo'lishi ularning ishonchliligidan dalolat bermaydi.

1.3. Bank kapitalining etarlilik darajasini baholash yo'llari.

Bank kapitali ko'zda tutilmagan qiyinchiliklarning oldini olishda asosiy o'rinni tutishini e'tiborga oladigan bo'lsak, unda muammoli va juda muhim bo'lgan bir necha savol yuzaga keladi: birinchidan kapitalning mavjud darajasi etarlimi, ikkinchidan kapitalning etarlilik darajasi qanday miqdorda bo'lishi kerak. Aytish lozimki, bu masalalarning echimi topish uchun dunyoning eng etakchi banklari va bankdan tashqari moliya institutlari bosh qotirib kelishmoqda. Hozirgi kunda bu masala O'zbekiston banklari uchun ham dolzab bo'lib turibdi. Negaki xorijiy banklar bilan hamkorlikda ishlarning tashkil etilishida, kapital miqdori, uning etarlilik darajasi va boshqa shunga uxshash masalalar birinchi o'ringa chiqadi va albatta banklar tomonidan mavjud muammolar e'tibor bilan o'rganilishi talab qilinadi.

Bank kapitali bilan bog'liq muammolarni hal etilishi uchun 1988 yili Shveysariyaning Bazel shahrida dunyoning rivojlangan davlatlari vakillari uchrashdilar. Kelishuv nafaqat kelishuv ishtirokchilar uchun, balki boshqa davlatlar bank tizimlari uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bu uchrashuvda, bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha yagona qoidalar yaratish bo'yicha qo'yilgan birinchi qadam sifatida, kelishuv imzolandi. Bank faoliyatini tartibga solish qoidalari Bazeldagi xalqaro hisob – kitob banki tomonidan ishlab chiqilgan. Bazel kelishuvi qoidalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha har bir mamlakat ma'lum erkinliklarga egadir, ya'ni o'z ichki sharoitidan kelib chiqqan holda mazkur qoidalarni qo'llaydi va Markaziy banklar tijorat banklari uchun iqtisodiy normativlarni Bazel kelishuvi me'yorlari asosida belgilaydi.

Bazel kelishuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi:

1. Tijorat banklarining Bosh banki bilan xorijiy mamlakatlaridagi shu'ba bo'linmalari faoliyatining huquqiy iqtisodiy asoslarini birxillashtirish;
2. Turli davlatlardagi bank aktivlari risklarlilik darajasini hisoblashning yagona tartibi belgilash;

3. Risk darajasini hisobga olgan holda bank kapitalining etarlilik darajasini bir asosga keltirish.

Tijorat banklari faoliyatini baholash mezonlarining zamonaviy tizimida markaziy o'rin - xususiy kapitalning etarliligi ko'rsatkichiga tegishlidir.

Bank kapitalining etarlilik darajasini tartibga solish rivojlangan mamlakatlarda 20 asrning 70 yillaridayok amalga oshirila boshlandi. Birinchi bo'lib, 1978 yili AQSH da bank kapitalining etarlilik darajasi standartlari qabul qilindi. Bu standartlarga ko'ra, bank kapitalining jami aktivlarga bo'lgan nisbati 9 % dan kam bo'lmasligi belgilangan edi. Keyinchalik tijorat banklarining takliflariga ko'ra 1988 bu koeffitsient 5 % miqdorda o'rnatildi, lekin 1992 yildan AQSH banklari xalqaro talablarga javob beradigan me'yorga mos keladigan darajada, ya'ni kapitalning risk darajasi bo'yicha hisoblangan aktivlarga nisbati 8 % qilib o'rnatildi.

Bazel kelishuvi asosida kapitalning etarlilik darajasiga qo'yilgan talablar nafaqat faoliyat ko'rsatayotgan banklar uchun, balki yangitdan tashkil etilayotgan banklarga ham taalluqlidir. Hozirgi kunda kapitalning etarliligi darajasini nazorat qilishning quyidagi (jahon bank amaliyotida keng qo'llaniladigan) ikki usuli mavjud:

1. 1988 yili Bazel kelishuvi asosida taklif etilayotgan usul;
2. AQSH FRS tomonidan taklif etilgan «CAMEL» reyting tizimi.

Bazel kelishuviga ko'ra kapitalning etarlilik darajasiga talablar quyidagi ko'rsatkichlar asosida ifodalanadi:

1. 1 – darajali (asosiy) kapital va 2 darajali (qo'shimcha) kapital o'rtasidagi nisbat;
2. Bankning asosiy va umumiy kapitali miqdorining risk darajasiga ko'ra hisoblangan aktivlarga bo'lgan nisbatini belgilovchi, kapitalning etarlilik koeffitsientlari.

Birinchi ko'rsatkich uchun qo'yilgan talab - asosiy va qo'shimcha kapital o'rtasidagi nisbat 1:1 doirasida bo'lishi belgilangan, ya'ni qo'shimcha kapital summasi asosiy kapital summasidan oshib ketmasligi kerak.

Ikkinchi ko'rsatkich bo'yicha qo'yilgan talab – asosiy kapital summasi risk darajasiga ko'ra hisoblangan aktivlar summasiga nisbatan 4% dan kam bo'lmasligi, umumiy kapital summasi esa 8% dan kam bo'lmasligi kerak.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablardan kelib chiqqan holda kapitalning ikki qirrasini ko'rsatish zarur. Bular, birinchidan kapitalning statik qirrasini, ikkinchidan kapitalning dinamik qirrasidir.

Kapitalning statik qirrasini juda oddiy tushuntirsa bo'ladi. Unga asosan, depozitlarni jalb qiluvchi va kreditlovchi, har qanday bank 5 mln. EKYU dan kam bo'lmagan miqdordagi ustav kapitaliga ega bo'lishi zarur. Mazkur talabni bajarmagan bank o'z faoliyatini boshlashi mumkin emas. Amalda faoliyat ko'rsatuvchi banklarga kapitalning etmagan qismini to'ldirish uchun ma'lum vaqt beriladi. Bu ko'rsatma (direktiva) Bazel kelishuviga a'zo davlatlar tomonidan 1993 yilning 1 yanvaridan boshlab kuchga kiritilgan.

Kapitalning minimal darajasi bank tomonidan barcha majburiyatlarni to'lagan holda olishi mumkin bo'lgan zarar summasiga teng bo'lishi kerak. Bu mijozlar tomonidan bankga ishonib topshirilgan mablag'larning saqlanishi garovidir.

Kapitalning dinamik qirrasini tasniflash birmuncha og'irroq. U Bazel kelishuviga ko'ra o'rnatilgan normativlarga rioya qilinishi bilan bog'liqdir.

Bank ishonchliligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib «Kuk» koeffitsienti (bank kapitalining risk darajasiga ko'ra hisoblangan aktivlarga nisbati) xizmat qiladi. 1988 yili Bazel kengashi tomonidan bank kapitalini hisoblash usuliga o'zgartirishlar va aniqliklar kiritildi. Unga ko'ra bankning asosiy kapitali tarkibiga: o'tgan yillardan qolgan foyda, soliqlar to'langandan so'ng qolgan sof foydadan tashkil etilgan ochiq zahiralar kiritildi va ularning jami summasi umumiy kapitalning 50% dan kam bo'lmasligi belgilandi. Qo'shimcha kapital esa, e'lon

qilinmagan yoki yashirin zahiralar, qayta baholash zahiralar (formal revalvatsiya va qimmatli qog'ozlarning yashirin qayta baholanishi) umumiy zahiralar (qaytishi dargumon bo'lgan kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zahiralar), qarz kapitaliga uxshash gibril instrumentlar (kumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar, aksiyaga aylanish huquqini beruvchi obligatsiyalar), subordinar qarzlardan iborat bo'ldi.

Bazel kengashi talablariga binoan, kapital etarliligi hisob – kitobi banklar moliyaviy hisobotining maxsus shakllarida ifoda etilishi ko'zda tutilgan. Bank aktivlarining risk darajasi kengash talablariga ko'ra 0%, 20%, 50%, 100% tortilgan aktivlarga bo'lindi.

CAMEL Reyting tizimi.

Kelgusi masala sifatida, AQSH FRS tomonidan taklif qilingan «CAMEL» reyting tizimini ko'rib chiqamiz. «CAMEL» reyting tizimi bank faoliyatini tahlil qilishda Sheshunoff Bank ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va ishlatiladigan baholash uslubiga asoslanadi. Mazkur tizim hozirgi paytda nafaqat AQSH tijorat banklari tomonidan, balki Federal Rezerv Sistemi va depozitlarni sug'urtalash Federal Korporatsiyasi tomonidan ham ishlatiladi.

«CAMEL» reting tizimining xususiyatlari shundan iboratki, unga ko'ra bank faoliyatining barcha ko'rsatkichlari qamrab olinadi va har biri bo'yicha baho beriladi. Reyting tuzishning asosiy prinsipi: ko'rsatkichlarning qiymati grafikda absissa o'qida, bankning bank tizimida egallagan o'rnini esa no'qta ko'rinishida ordinata o'qida joylashtiriladi. Bu no'qta foizlar ko'rinishida bo'lib, u protsentil deb ataladi. Protsentil tahlil etilayotgan bankning boshqa banklar guruhiga nisbatan egallagan o'rnini ko'rsatadi. AQSH da solishtiriladigan guruhlar soni 25 tashkil etadi. Banklarni alohida guruhlarga ajratishning asosiy belgilari bo'lib quyidagilar chiqadi:

1. Bank ulchami (balans valyutasi, aktivlarning umumiy summasi)
2. Bankning joylashishi (bank shaharda yoki qishloqda joyda),
3. Shaxobchalarning mavjudligi yoki yo'qligi.

Baholashda ayrim olingan bankning oʻrni guruhlardagi koʻrsatkichlarning oʻrtacha qiymati bilan belgilanadi.

«CAMEL» reyting tizimi tomonidan bank kapitalining etarliligi, aktivlarning sifati, bank boshqaruvining samaradorligi, daromadlilik va likvidlilik koʻrsatkichlari oʻrganiladi.

Bank kapitalilining etarliligi (adekvatligi) ni tahlil qilish uchun «CAMEL» tizimida quyidagi asosiy koʻrsatkichlardan foydalaniladi:

1. 1 – darajali (asosiy) kapital va 2 – darajali (qoʻshimcha) kapital oʻrtasidagi nisbat;

2. Kapitalning etarlilik koeffitsientlari

Asosiy kapital – nomoddiy asosiy kapital $K_1 = \text{Risk darajasi bo'yicha hisoblangan aktivlar}$

Jami kapital – nomoddiy asosiy kapital $K_2 = \text{Risk darajasi bo'yicha hisoblangan aktivlar}$

3. Moliyaviy richag koeffitsienti (bank kapitalining balans aktivlarining oʻrtacha qiymatiga nisbati)

«CAMEL» reyting tizimi boʻyicha bank kapitalining tarkibi quyidagicha:

Bankning asosiy kapitali:

1. Bankning oddiy aksiyalari;

2. Muddatsiz imtiyozli aksiyalar, agar ular boʻyicha qaytarib sotib olish vaqti oʻrnatilmagan boʻlsa, aksiya egasining istagiga qarab sotib olinmasa va bu aksiyalar boʻyicha maxsus zahira yaratilmagan boʻlsa. Imtiyozli aksiyalarni asosiy kapitalga kiritilishining yana bir sharti shuki, ular emitent faoliyat koʻrsatishi davrida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin boʻlishi va emitent ular boʻyicha dividendlarni toʻlashdan voz kechishi yoki kechiktirishi imkoniyati boʻlishi kerak;

3. Taqsimlanmagan foyda va zahiralar;

4. Konsolidatsiya qilingan shu'ba korxonalarining aksioner kapitalidagi ulushi. Kapitalning bu qismi filial va shu'ba korxonalarning faoliyatidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zarani bemalol qoplay olishi kerak.

Qo'shimcha kapital esa quyidagi elementlardan iborat:

1. Risk darajasiga qarab hisoblangan aktivlarning 1,25 % ga teng ulchamdagi kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash zahiralari;

2. Muddatsiz imtiyozli aksiyalar va ular bo'yicha nominal qiymatdan sotish qiymatining oshgan qismi;

3. Subordinar qarzlar va o'rta muddatli imtiyozli aksiyalar (asosiy kapitalning 50 %dan oshmagan qismi), agar ularning to'lash muddati 5 yildan kam bo'lmasa.

Bank kapitali reytingini hisoblashga ta'sir etuvchi faktorlar jumlasiga kapitalning ichki generatsiyasi, kapital bozoriga kirib borish imkoniyati, depozitlar va majburiyatlarning tarkibi kiradi.

Bank kapitalining etarlilik darajasini baholash 5 ballik tizim bo'yicha o'lchanadi. Bank olgan ball qanchalik yuqori bo'lsa, bank shunchalik «kuchsiz» hisoblanadi. Olingan quyidagicha tasniflanadi:

1 ball – kuchli;

2 ball – qoniqarli;

3 ball – o'rtacha;

4 ball – kritik;

5 ball – qoniqarsiz.

Bank kapitalini baholash quyidagilarga nisbatan aniqlanadi:

1. Riskli aktivlarning hajmiga nisbatan;

2. Kritik va qoniqarsiz aktivlarning hajmiga nisbatan;

3. Kutilayotgan bank operatsiyalarining o'sishi, rejalari va uning kelajagiga nisbatan;

4. Bank aktivlarini boshqarish darajasiga nisbatan.

Bank kapitali etarliligini baholashda aktivlar sifati ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. Garchi bank operatsiyalari ko'lami keng bo'lsada, uning aktivlari sifatsiz bo'lsa, bank kuchsiz deb hisoblanadi.

Bank kapitalizatsiya darajasi quyida keltirilgan shartlarga nisbatan yuqori bo'lsa, bank kapitali 1 ball (kuchli) bilan baholanadi:

- Riskli aktivlarning hajmiga nisbatan;
- Kritik va qoniqarsiz aktivlarning hajmiga nisbatan;
- Kutilayotgan bank operatsiyalarining o'sishi, rejalari va uning kelajagiga nisbatan;
- 1,2,3 punktlarga nisbatan bankni boshqarish darajasi.

Bank kapitalizatsiya darajasi quyida keltirilgan shartlarga nisbatan qoniqarli hisoblanlansa, bank kapitali 2 ball (qoniqarli) bilan baholanadi:

- ✓ Riskli aktivlarning hajmiga nisbatan;
- ✓ Kritik va qoniqarsiz aktivlarning hajmiga nisbatan;
- ✓ Kutilayotgan bank operatsiyalarining o'sishi, rejalari va uning kelajagiga nisbatan;
- ✓ 1,2,3 punktlarga nisbatan bankni boshqarish darajasi.

Garchi bank kapitali yuqoridagi punktlarga nisbatan salbiy tomonga o'zgarsa va bank boshqaruvi bu masalalar yuzasidan keskinlikni hal etish qiyinchiliklarga duch kelsa bank kapitali 3 ball (o'rtacha) bilan baholanadi.

Aktivlar bo'yicha risk darajasining oshirishi oqibatida bankning aksionerlik kapitaliga zarar etkazilsa yoki etkazilishi yaqqol ayon bo'lsa, bank kapitali 4 ball (kritik) bilan baholanadi.

Bank aktivlari zarar keltirganligi bank tomonidan tan olinishi, kapitalni 5 ball (qoniqarsiz) deb baholanishiga olib keladi. Bank kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab yuzasidan hisob – kitob bo'yicha misol. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga

qo'yilgan talablar to'g'risida Nizom» ga ko'ra (O'z.R.AV da 949 son bilan 2000 yil 25 iyulda ro'yxatga olingan):

1. Asosiy (1 – darajali) kapitalning tavakkalchilik hisobga olingan holdagi jami aktivlarga nisbati 5% dan kam bo'lmاسligi;

2. Umumiy kapitalning (ya'ni, 1 – va 2 – darajali kapital yig'indisi) tavakkalchilik hisobga olingan holdagi jami aktivlarga nisbati 10% dan kam bo'lmاسligi talab qilinadi.

I bob bo'yicha xulosa

1. Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi.

2. Innovsiya faoliyati – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat.

3. Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va bajarilishi talab etiladi: davlat innovatsiya siyosati, investitsiya salohiyati, innovatsiya sohasi, innovatsiya infratuzilmasi, innovatsiya dasturi.

4. Innovatsiyalarning tarixiy rivojlanishi natijasida bugungi jamiyat o'z taraqqiyoti va kelajagini t'minlashda, barcha amaliy tajriba va imkoniyatlardan to'liq foydalanishda o'tmishdagiga nisbatan katta ustunliklarga ega hisoblanadi. Biroq, mazkur jarayonda ham o'ziga xos global tus olgan va olib borayotgan muammolar ham vujudga kelganki, ularni hal etishda, ayrim hollarda esa, sabablarini qidirishda bevosita innovatsiyalarga murojaat qilishga to'g'ri kelmoqda.

II-BOB. RESPUBLIKADA BANK KAPITALLASHUV DARAJASINI BAHOLASH USULLARI

2.1. Banklarining kapitallashuv darajasini Camels xalqaro reyting tizimi orqali baholash tahlili


Co'nggi yillarda respublikamizda olib borilgan islohotlar natijasida, bank tizimida bir qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan banklarning rivojlanishi xalqaro talablar darajasida bo'layotganligi hamda jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanayotganligi e'tiborga molik. Mazkur holatni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etib: **“Respublikaning bank tizimi barqaror faoliyat ko'rsatmoqda, uning kapital etarliligi darajasi minimal xalqaro standartlardan 3 barobar ortiq miqdorda saqlanib qolmoqda, likvidliligi esa eng yuqori talablardan 2,2 barobar ko'pdir. O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga ko'paydi, kredit portfeli jami summasining 80 foizga yaqini ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi”**⁴, degan so'zlarida o'z aksini topgan desak xato bo'lmaydi.

2.1.1-rasmdan ko'rinib turganidek, 2008 yildan 2013 yilga qadar banklarning jami kapitali 3 barobarga o'sganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunga ko'p jihatdan bank sektorida boshqaruv tizimini samarali tashkil etishga, ya'ni bank menejmentiga e'tibor kuchaytirilayotgani asos bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda yuqoridagi ko'rsatkichlar hukumat va Markaziy bank tomonidan qabul qilingan qarorlar hamda me'yoriy hujjatlar ijrosini to'g'ri tashkil etish jarayoni asosida vujudga kelmoqda. Bank tizimi barqarorligini mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi qabul qilingan PQ-1438-sonli «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori

⁴ Каримов И.А. 2013-йилда Республикани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014-йилги иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор вазифалари. //Халқ сўзи №14 (5434) 20 январь.

ham misol bo‘la oladi. Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan banklar va ularning filiallarida inspeksiya (tekshiruv) o‘tkazish tartibi belgilandi.



2.1.1-rasm. Banklarning jami kapitali (mlrd.so‘m)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzilgan.


Markaziy bank tomonidan moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash, banklar faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilish borasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun banklar va ularning filiallarida inspeksiya (tekshiruv)lar o‘tkazilib kelmoqda. Shuningdek, bugungi kunda banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarining sifati va darajasining xolis baholanishini ta’minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini amaliyotga keng tatbiq etish choralari belgilangan.

CAMEL(S) xalqaro reyting tizimi bank nazorati bo‘yicha Bazil qo‘mitasi tomonidan ham masofadan va joyiga chiqib tekshiruv o‘tkazishda foydalanishga tavsiya etilgan bo‘lib, hozirda ko‘pgina mamlakatlar tomonidan, shu jumladan yurtimizda ham qo‘llanilib kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda butun bank-moliya tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy

etish vazifasi dolzarbdir. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, CAMELS reyting tizimining tatbiq etilishi tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash va boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga olib keladi. Bugungi kunda AQSHdagi oltita komponentni baholovchi CAMELS reyting baholash tizimi tijorat banklari faoliyatini xolis baholashda yordam bermoqda.

CAMELS reyting tizimining bank aktivlarini boshqarishdagi rolini aniqlashdan oldin ushbu reyting tizimi atamasining har bir harfning ma'nosiga va baholash koeffitsientlariga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, CAMELS atamasidagi har bir harf quyidagi ma'noni anglatadi:



Harflar ma'nosidan ko'rinib turibdiki, ushbu atama bankning samarali faoliyatini to'liq baholaydi.

Shuningdek, aksariyat ko'rsatkichlar, bankning nazorati agentligiga kelib tushgan hujjatlar asosida "sirdan" Amerika reyting baholash tizimi orqali aniqlanadi (call reports – har chorakda banklar taqdim etadigan hisobot). Ushbu hisobot ma'lumotlariga ko'ra, banklar boshqa banklar bilan qiyoslangan hisobot sanasiga bank faoliyati ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi UBPR – Uniform Bank

Performance Report (banklar faoliyati to'g'risidagi unifikatsiyalangan hisobot)ni taqdim etadi.

Bundan tashqari, UBPR o'tgan davr (3-4 yil) uchun bank faoliyatining shunday ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Zarurat tug'ilganda, qiziqtiruvchi detallarni aniqlash uchun joylarda tekshiruvlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, ularning doirasida nazorat idoralari yanada kompleks tahlil o'tkazish maqsadida qo'shimcha axborot olishlari mumkin. Shuning uchun CAMELS uslubi masofaviy nazoratdagi singari, inspeksiya tekshiruvlarini o'tkazishda ham foydalaniladi.

Bizga ma'lumki, CAMELS reyting tizimining har bir ko'rsatkichi 1 dan 5 gacha bo'lgan ustunga ko'ra baholanadi, bunda bank faoliyatini salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan har elementi bo'yicha ma'lumko'rsatkichlarda sezilarsiz og'ishishlarga ega bo'lgan moliyaviy jihatdan barqaror bank 1-ustunni egallaydi; 5-ustunni nazorat organlari va bank rahbariyati tomonidan tezkor aralashuvni talab etuvchi va o'z faoliyatida kamchiliklar hajmi va xarakteri keskin darajada bo'lgan bank egallaydi.

Har bir komponentni baholash natijalariga ko'ra, quyidagi kompleks baho chiqariladi (composite rating):

- 1- Strong (kuchli)
- 2- Satisfactory (qoniqarli)
- 3- Fair (vositali)
- 4- Marginal (keskin)
- 5- Unsatisfactory (qoniqarsiz)

Ushbu CAMELS reyting tizimida kompleks baho natijalari quyidagilardan iborat:

“1” – bank barcha munosabatlarda “butunlay sog'lom” (qator ko'rsatkichlardagina sezilarsiz og'ishishlar bo'lishi mumkin), tegishli boshqaruv tizimi mavjud, tashqi iqtisodiy va moliyaviy ta'sirlarga nisbatan barqaror, kuzatuv organlarining aralashuviga zarurat yo'q.

“2” – bank deyarli “butunlay sog‘lom”, olingan keskin ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega emas, boshqaruv tizimida keskin kamchiliklar mavjud emas, barqaror va ishbilarmonlik olamidagi o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli bartaraf etishi mumkin, bank nazorati organlarining aralashuvi cheklangan va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish uchun zarur hajmda amalga oshiriladi.

“3” – qulay darajalardan qoniqarsiz darajalargacha moslashuvchi moliyaviy, operatsion yoki texnik zaifliklar mavjudligi; iqtisodiy vaziyatning noqulay o‘zgarishlaridagi zaiflik; agar zaifliklarni bartaraf etish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar samarasiz bo‘lsa osongina xonavayron bo‘lishi mumkin.

“4” – jiddiy moliyaviy muammolar, moliyaviy muammolarga kerakli e’tibor mavjud bo‘lmaganda nosog‘lom vaziyat saqlanib qolishi, tuzatuvchi choralar ko‘rilmasa yuzaga kelgan holat kelgusida yashovchanlik yo‘qolishiga olib kelishi mumkin, xonavayron bo‘lish ehtimoli, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishning puxta kuzatish nazorat qilish, shuningdek, muayyan rejasi zarur.

“5” – yaqin vaqtlarda xonavayron bo‘lish ehtimoli mavjud, aniqlangan kamchiliklar shunchalik xavfliki, bunga aksiyadorlar tomonidan yoki boshqa moliyaviy tashkilotlardan ko‘mak talab etiladi, tuzatish tadbirlarini o‘tkazmasa, boshqa kredit tashkilotlari bilan birlashtirilishi yoki tugatilishi mumkinligini bilishimiz va shu bilan bir qatorda tijorat bankining barqarorligi va likvidliligi bo‘yicha ma’lumotlar olish imkoniga ega bo‘lamiz.

Ushbu paragrafda CAMELS reyting tizimining ikkinchi “A” harfi, ya’ni “Aktivlar sifati” ko‘rsatkichlarini tahlil qilish usulida batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz

Ma’lumki, bank faoliyatining CAMELS tizimi bo‘yicha reytingini aniqlash maqsadida tahlil qilish, avval ta’kidlab o‘tilganidek, yuqori xatarlilik jabhasini aniqlash imkonini beruvchi aktivlar tarkibini ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Masalan, umumiy holatda ssudalar qimmatli qog‘ozlarga nisbatan kredit tashkilotlari uchun yanada xatarliroq bo‘ladi. Davlat organlari tomonidan

emmitatsiyalangan qimmatli qog'ozlar xatardan yiroqdir. Tijorat ssudalari jismoniy shaxslarga beriluvchi ssudalarga nisbatan xatarliroq hisoblanadi.

Bundan tashqari, aktivlarni taxlil qilishda quyidagi koeffitsientlar inobatga olinadi:

- ssudalarning umumiy aktivlar hajmiga nisbati, foizlarda;
- ssuda qarzdorligi umumiy hajmida muddati uzaytirilgan va qayta tarkiblashtirilgan ssudalar (katta ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ssuda qarzdorligi turlari tahlil qilinadi);
- zaxiralarning ssuda qarzdorligi umumiy hajmiga qiymati;
- zaxiralar qiymatining ssudalar bo'yicha ko'rilgan zararlarga nisbati tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, aktivlar sifatini baholashga ta'sir etuvchi har bir ko'rsatkichni tahlil qilishda uning hisobot sanasidagi qiymati hisobga olinadi, bank guruhi (peer group) bo'yicha o'xshash ko'rsatkichlar bilan qiyoslanadi va trend e'tiborga olinadi (so'nggi hisobot davridagi o'zgarishlar). Uning naqafat miqdori qiymatlarini aniqlash, balki uni o'zgartiruvchi omillarni ham aniqlash muhimdir.

Aktivlar xatari bo'yicha o'lchangan koeffitsientlar aktivlarning sifat indikatori hisoblanadi (Weighed classification asset ratio), aynan:

$$\frac{N_s \times 20\% + S_m \times 50\% + B_n \times 100\%}{OK + RVPA}$$

bu erda: N_s –nostandart ssudalar;

S_m – shubhali ssudalar;

B_n – ishonchsiz (umidsiz) ssudalar;

OK – asosiy kapital;

$RVPA$ – aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralar.

So'ng olingan natijalar asosida AQSH Federal zaxira tizimi aktivlar sifatini tezkor baholash uchun quyidagi matritsadan foydalanadi⁵ (2.1.1-jadval).

⁵ Банковский менеджмент: учебник. /Подред. О.И. Лаврушина. 3-е изд., перераб. и доп. -М.: КНОРУС, 2010. -560с.

Aktivlar sifatini tezkor baholash matritsasi

Xatar darajasi bo'yicha o'lchangan aktivlar koeffitsienti	"CAMELS uslubi bo'yicha sifat" komponenti reytingi (nazorati)
0-5	1
5-15	2
15-30	3
30-50	4
50-100	5

Manbaa: Muallif tomonidan tuzilgan.

CAMELS reyting tizimi orqali ko'rsatib o'tilgan baholar boshqa omillar – nobalans aktivlar sifati, zaxiralarni shakllantirish usuli, kredit siyosati, ssuda qarzдорligi monitoringining mosligini hisobga olgan holda kamaytirilishi mumkin.

Bankning reyting darajasini baxolashda uni bankrotlikdan saqlashda CAMELS reyting tizimining roli va ahamiyatini ko'rib chiqdik, biroq ushbu reyting tizimi kamchiliklaridan ham xoli emas. Fikrimizcha, ushbu kamchiliklaridan biri – reyting tizimi ekspert xulosalari asosida aniqlanishidir.

Ekspert xulosasi asosida baholanganda natija sub'ektiv bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quydagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- baholash tizimidagi ekspertlarning malakasini oshirish;
- berilgan bank xulosalari uchun javobgarlikni belgilash;
- APBQ tomonidan har bir koeffitsient turlarini boshqarish bo'yicha mas'ul shaxslar tayyorlash;
- tijorat banklarida nafaqat ichki tahlilni, balki tashqi tahlil, ya'ni boshqa banklar faoliyati bilan taqqoslashni yo'lga qo'yish;
- mamlakatimizda milliy reyting kompaniyalarini ko'paytirish va ular o'rtasida raqobat muhitini yaratish.

Ushbu takliflarning amaliyotda joriy etilishi tijorat banklari barqarorligini mustahkamlaydi, aktivlarini samarali boshqarishga yordam beradi, shu bilan bir


qatorda aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi, bu esa o'z navbatida, bank kapitalining o'sishiga olib keladi.

2.2. Banklarining kapital bazasini oshirish orqali inovatsion rivojlanishni moliyaviy taminlash yo'llari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash bosqichida tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlash bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 noyabrda bo'lib o'tgan va mamlakatimizni 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida banklarning resurs bazasini mustahkamlash masalasiga to'xtalib, "bank tizimi jami kapitalini kamida 20 foizga ko'paytirish"ning zarurligini alohida ta'kidladilar⁶.

Ushbu bobda respublikamiz tijorat banklari kapital bazasining amaldagi holatini tahlil qilamiz va uni yanada oshirish imkoniyatlariga baho beramiz.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari umumiy kapitalining dinamikasiga baho beramiz (2.2.1-rasm).



⁶ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. - 21 Б.

2.2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining umumiy kapitali miqdori o‘zgarishi, mlrd. so‘m⁷

2.2.1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2006-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining umumiy kapitali miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, mamlakat hukumati va Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning izchillik bilan amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, respublikamiz tijorat banklarining umumiy kapitalini 2011-2015 yillarda 2,1 martaga oshirish vazifasi qo‘yilgan edi

Tijorat banklarining kreditlari 2009 yilga nisbatan 2015 yilga kelib 5 barobarga oshganligi, dipozitlar esa 4,1 barobarga oshganligi hamda kapital hajmini o‘shish tendensiyasi 2,6 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa tijorat banklarning aktivlari 4 barobarga oshish imkoniyatini yaratdi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari ana shunday yuksak mas’uliyatni his etgan holda ish olib borib, tizimni yurtimiz iqtisodiyotining etakchi tarmog‘iga aylantirishga harakat qilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar amaliyotda o‘z natijasini bermoqda. Albatta, bunda banklarning bir maromda ishlash strategiyasi puxta ishlab chiqilgani, har bir bankka alohida yondashilib, kapitalining o‘shishini bevosita nazoratga olgan holda aktivlari sifat jihatdan yaxshilanib borilishiga jiddiy e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Ana shunday puxta o‘ylangan strategiya bank tizimining muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlamoqda.

⁷ www.cbu.uz

Har qanday faoliyatdagidek bank faoliyati ham mavjud mablagʻlarni eng kam risk asosida joylashtirib, yuqori daromat olish imkoniyatiga ega boʻlishni koʻzda tutadi. Yuqori daromat olish esa oʻz navbatida banklar olib boradigan operatsiyalarning risk darajasini oshiradi, chunki banklar asosan chetdan jalb qilingan resurslar bilan ishlaydilar.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan «Oʻzsanoatqurilishbank» tomonidan 157 mlrd. soʻmlik, Xalq banki tomonidan 54 mlrd. soʻmlik aksiyalar chiqarilib, investorlar orasida joylashtirildi. Shuningdek, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitali – 35 mlrd. soʻmga, «Agrobank»niki – 50 mlrd. soʻmga, «Mikrokreditbank»niki – 25 mlrd. soʻmga va «Qishloq qurilish bank»niki – 25 mlrd. soʻmga oshirildi⁸.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish boʻyicha amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida bank tizimining umumiy kapitali soʻnggi 5 yil ichida 2,4 martaga oʻsdi.

2015 yilning oʻzida ushbu koʻrsatkich 23,3 foizga oshib, 2016 yil 1 yanvar holatiga koʻra 7,8 trln. soʻmni tashkil etdi (2.2.1-rasm).

Aholi va xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning banklardagi depozitlari hajmining oʻsishini ragʻbatlantirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, uzoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish oʻzining ijobiy natijalarini bermoqda.

2016 yil 1 yanvar holatiga koʻra, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit va jamgʻarma sertifikatlari 703,4 mlrd. soʻmni hamda obligatsiyalar 247,8 mlrd. soʻmni tashkil qildi.

⁸ Бегалов Б.А., Хайдаров Н.Х., Ортиқов О.А., Шеннаев Х.М., Мухамедов Ф.Т., катта илмий ходим-изланувчи Курбонов Ж.Ж. “Мамлакатимизнинг иқтисодий тараққиёти ва аҳоли фаровонлигини таъминлаш: ютуқлар, тенденция ва истикболлар” Илмий-оммобоб рисола, Тошкент-2016, 119 бет.

Umuman olganda, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jalb qilingan depozitlarning umumiy hajmi 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 35,6 trln. so'mni tashkil etib, 2015 yil boshiga nisbatan 28,0 foizga oshdi.

Tijorat banklarining kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga, aktivlar va kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.


Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 25,1 foizdan ziyodga o'sib, 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 65,2 trln. so'mni tashkil etdi (2.2.2-rasm).



2.2.2-rasm. Tijorat banklarining jami aktivlari dinamikasi, mlrd so'mda⁹

Shu jumladan, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining umumiy hajmi 2015 yilda 27,3 foizga oshib, 2016 yilning 1 yanvar holatiga 42,7 trln. so'mni tashkil etdi (2.2.3-rasm).

⁹ www.cbu.uz



2.2.3-rasm. Tijorat banklarining kredit qo'yimalari dinamikasi, mlrd so'mda¹⁰


Iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

2015 yilda iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2014 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79,8 foizni tashkil etdi.

Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

2015 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 10,2 trln. so'm yoki 2014 yildagiga nisbatan 1,2 barobar ko'p investitsion kreditlar ajratildi (2.2.4-rasm).

¹⁰ www.cbu.uz



2.2.4-rasm. Investitsion kreditlar dinamikasi, trln. soʻmda¹¹

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 6 mayda qabul qilingan «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va resurs bazasini shakllantirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-2344-sonli Qarori talablariga muvofiq, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapital etarliligi, likvidlik boʻyicha talablarni kuchaytirishni, Bazel III tavsiyalarini bosqichma-bosqich joriy etishni koʻzda tutuvchi Markaziy bankning bir qator meʼyoriy hujjatlari yangi tahrirda qayta ishlab chiqildi, 1 ta nizomga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi.

Jumladan, ushbu hujjatlarda:

- regulyativ kapital etarlilik darajasining eng kam miqdorini bosqichma-bosqich 10 foizdan 14,5 foizga etkazish, I darajali kapital etarlilik darajasining eng kam miqdorini bosqichma-bosqich 5 foizdan 11 foizga oshirishni koʻzda tutuvchi meʼyorlar belgilandi;
- aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish mexanizmi takomillashtirildi, investitsiya portfelining sifatini tasniflash tartibi joriy etildi;

¹¹ www.cbu.uz

– bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlarga qo‘yiladigan talablar kuchaytirildi, bankka aloqador bo‘lgan shaxslar tarkibi va bankka aloqador bo‘lgan bitta shaxsga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi aniqlashtirildi;

– banklarning likvidliligini boshqarishga talablar kuchaytirilib, likvidlikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirishning yangi me‘yorlari o‘rnatildi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tijorat banklari «Mudis», «Standart end Purs», «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklarining «barqaror» reyting baholariga ega.

2015 yilda «Standart end Purs» va «Fitch reytings» reyting agentliklari O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini yana bir bor «barqaror» deb baholadi.


2015 yilning iyul oyida «Mudis» xalqaro reyting agentligi O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollariga ketma-ket oltinchi yil «barqaror» reyting bahosini berdi.

Mazkur xalqaro reyting agentliklari O‘zbekiston banklari faoliyatining daromadliligi, aktivlari sifati va likvidligining yuqoriligi, mijozlar depozitlari va kapitalining etarli darajada o‘lishini respublika bank tizimi barqarorligi va rivojlanishining asosiy omillari sifatida alohida qayd etmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda bank tizimini erkinlashtirish, isloh qilish va uning tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

Xususan, mazkur xalqaro tashkilotlar tomonidan 2015 yilning oktyabr oyida e‘lon qilingan «Biznesni yuritish – 2016» mamlakatlarning yangi reytingida O‘zbekiston qulay ishbilarmonlik muhiti ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahonning 189 ta davlati orasida 54 pog‘ona ko‘tarilib, 87-o‘rinni egalladi.

«Kreditlar olish indeksi» bo‘yicha O‘zbekiston bank tizimi ko‘rsatkichlari oldingi yilga nisbatan bir yo‘la 63 pog‘onaga yoki 105-o‘rindan 42-o‘ringa ko‘tarildi (2.2.5-rasm).



**2.2.5-rasm. Jahon banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasining
“Biznesni yuritish” yillik hisobotlarida O‘zbekistonning “Kredit tizimi”
bo‘yicha dunyo reytingidagi ko‘rsatkichlarining o‘shish sur‘atlari**

Respublika bank tizimida kreditlash mexanizmini takomillashtirish va soddalashtirish borasida samarali tadbirlarning izchil va uzluksiz ravishda amalga oshirilishi natijasida ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatimiz reytingi so‘nggi 3 yil ichida 112 pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, qayta tiklash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va keyinchalik ushbu korxonalarni strategik investorlarga sotish borasida ham banklar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4053-sonli farmonida ko‘zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklari mablag‘larini kengroq jalb qilishni yo‘lga qo‘yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Farmonda Respublika komissiyasi qarori asosida bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning balansiga berishning 3ta mexanizmi ko‘zda tutilgan. Chunonchi, bankrot korxonani:

1) kreditorlik qarzi tarkibining 70 % va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda tijorat banklari balansiga berish;

2) auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banlariga sotish;

3) tanlov savdolari orqali tijorat banklariga "nol" qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Yuqorida qayd etilgan farmonni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi "Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi 4010-sonli farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarning moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar berilgan. Ushbu farmoyishga ko'ra, jumladan, bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar:

- qo'shimcha qiymat solig'idan;
- uch yil davomida foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mulk va er soliqlarini to'lashdan;
- boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindilar.

Bu muhim hujjatlar bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi. Jumladan:

- bankrot korxona negizida ustav jamg'armasi 100 %gacha bo'lgan yangi korxona tashkil etish;

- bankrot korxona tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditni, shu jumladan, hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxona uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, bozor bahosida sotish va h.k.

Tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalarni tiklash, ular bazasida yangi tashkil etilgan korxonalarni salohiyatli investorlarga sotish ishlari samarali amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu maqsadda barcha etakchi tijorat banklari qoshida qator investitsion va injiniring kompaniyalari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2009 yil 28 iyunda imzolangan PQ-1166-sonli Qaroriga binoan tijorat banklariga quyidagi imtiyozlar berildi:

- 2015 yilning 1 yanvarigacha tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab, tabaqalashtirilgan stavkalar bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash;

- tijorat banklariga korxona va tashkilotlar - yirik investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ularni investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qabul qilishda ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha xarajatlarni umuman loyihani moliyalash uchun beriladigan kreditning umumiy summasiga kiritgan holda, moliyalashga kreditlar berishni amaliyotga tatbiq qilish joriy etildi.

Bankrot korxonalarni tiklash jarayonini rag‘batlantirish maqsadida kiritilgan yangi soliq imtiyozlari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsion faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1317-sonli

Qarorida ham o'z aksini topdi. Unga asosan, tijorat banklari tomonidan, shu jumladan, boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarga, yangi investorlarga sotilgunga qadar, ular davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga quyidagi huquqlar berilgan:

- mavjud imtiyozlar buyicha mol-mulk solig'i summasini korxona xarajatlariga kiritmaslik;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini o'rnatilgan me'yordan kamroq hisoblash.

Ushbu imtiyozlarni amalda qo'llash uchun qo'shimcha me'yoriy xuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari balansiga qabul qilingan jami 164 ta iqtisodiy nochor korxonalardan 156 tasining faoliyati qayta tiklanib, 110 tasi 851,6 milliard so'mga yangi mulkdorlarga sotildi. "2009-2013 yillarda samarasiz ishlayotgan 172 ta korxona tijorat banklari balansiga o'tkazildi. Ularning 112 tasida ishlab chiqarish faoliyati tiklandi va yangi mulkdorlarga sotildi. Banklar balansida qolgan korxonalarining 43 tasida esa ishlab chiqarish faoliyati tiklandi, yana 17 ta korxonada bu borada ish olib borilmoqda. Ana shu korxonalarda modernizatsiya va ishlab chiqarish faoliyatini tiklash jarayonlarini amalga oshirish uchun 316 milliard so'm hajmidagi investitsiya kiritildi va buning natijasida 9 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi(2). Tijorat banklari tomonidan mazkur korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ortiq yangi ish o'rini yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korxonalar tomonidan 1 trillion so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 320 million AQSH dollaridan ko'p mahsulotlar eksport qilindi. Bugungi kunda tijorat banklarining tasarufida qolgan 54 ta korxonadan 46 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklangan bo'lsa, 8 ta korxonada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, texnologik liniyalarni tiklash,

qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Xozirgi vaqtgacha respublikamizda tijorat banklari balansiga jami 172 ta iqtisodiy nochor korxona qabul qilindi. Ularga ishlab chiqarishni tiklash va modernizatsiya qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan 470 mlrd. soʻmdan ortiq investitsiyalar kiritildi. Buning evaziga ular AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Shvetsariya va Xitoyda ishlab chiqarilgan zamonaviy yuqori texnologiyalar bilan ta'minlanib, uskunalar bilan jihozlanmoqda.

2015 yilda ham tijorat banklari balansidagi faoliyati tiklangan korxonalarning yangi mulkdorlarga sotish ishlari olib borilmoqda hamda mazkur korxonalar ishlab chiqarilishi yoʻlga qoʻyish boʻyicha texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-ta'mirlash, yangi uskunalar oʻrnatish va modernizatsiyalash bilan bogʻliq ishlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari balansiga olingan moliyaviy nobarqaror va iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash va strategik investorlarga sotish ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiqdir. “Birinch navbatda, avvalo, zarar koʻrib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yoʻqligi sababli toʻla quvvat bilan faoliyat koʻrsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan “nol” qiymatida sotish zarur”(3). Shu jumladan, tijorat banki balansidagi korxonalarda investitsiyalarni oʻzlashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini tiklash, yangi ish oʻrinlarini yaratish va mahsulotlar (ish, xizmat) ishlab chiqarish boʻyicha prognoz koʻrsatkichlar bajarilishini ta'minlash; tijorat banklari balansidagi korxonalarni tiklash va sotish jarayoniga salohiyatli, shu jumladan, xorijiy investorlarni jalb qilishda tijorat banklarining boshqaruvchi kompaniyalari faoliyatini yanada kuchaytirish; yangi investorlarga sotilgan korxonalar boʻyicha oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan toʻlovlarni toʻliq va oʻz vaqtida kelib tushishini ta'minlashni amalga oshirish lozim.

Fikrimizcha, bunday yondashuv kelgusida ham tijorat banklari balansiga oʻtkazilgan bankrot korxonalarni qayta tiklash ishlarida eng muhim yoʻnalish

bo‘lib qoladi. Buning natijasida esa faoliyati tiklangan korxonalarni yangi mulkdorlarga sotish va ular tomonidan mazkur korxonalarni to‘liq quvvat bilan ishlashi mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Tijorat banklarining mazkur yo‘nalishdagi investitsiya faoliyati O‘zbekistonda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashda ijobiy natijalarni beradi.

II bob bo‘yicha qisqacha xulosa

Respublikamizning yirik tijorat banklarini kapital bazasini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklarining brutto aktivlari bilan umumiy kapitalining o‘rish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash maqsadida, birinchidan, muddati o‘tgan kreditlarni va ularga hisoblangan foizlarni banklarning balansidan chiqarib tashlash lozim; ikkinchidan, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining emissiya hajmi va bank qoshida tashkil etiladigan konsolidatsiyalashmagan shu‘ba korxonalarini tashkil etishga yo‘naltiriladigan investitsiyalar summasini oshirish lozim.

2. Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida tijorat banklari qoshida trast, lizing, faktoring va forfeyting kompaniyalari kabi kredit muassasalarini ochish keng tarqalgan. Natijada ularning qo‘shimcha kapitali miqdorini oshirish imkoni yuzaga keladi.

3. Yirik tijorat banklarining devalvatsiya zaxirasini soliqdan ozod qilish sharti bilan tijorat banklarining daromadlariga o‘tkazish va uni faqat uzoq muddatli investitsion kreditlar sifatida joylashtirilishini ta‘minlash lozim.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiqi, fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kapital bazasini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

III-BOB. INNOVATSION RIVOJLANISHNI MOLIYAVIY TA'MINLASHDA BANKLARNING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Banklar kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi talablari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlarini bartaraf etish sharoitida barcha mamlakatlarda, shu jumladan, respublikamizda ham bank tizimining barqarorligiga asosiy e'tibor qaratildi. Xalqaro miqyosda yirik 20 talik mamlakat vakillarining yig'ilishlarida jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqish sabablari va uning oqibatlarini bartaraf etish yo'llari ishlab chiqildi. Bo'lib o'tgan yig'ilishlarda qabul qilingan qarorlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularda xalqaro moliya institutlarining mavqeini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

Jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Bazel qo'mitasining bank tizimining barqarorligini taminlashdagi talablarini qayta ko'rib chiqish taklifi maqullangan. Shunday qilib, Xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi "Bazel III" talablari ishlab chiqildi va 2019 yilgacha bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi tavsiya qilindi.

2010 yil sentyabr oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlangan ushbu yangi standartlar banklar kapitali etariliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013 yildan boshlab o'tilishi hamda 2019 yilga kelib, ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirilishi kutilmoqda.

Bazel qo'mitasi a'zolari «Bazel III» borasida ilk bor 2009 yilning sentyabr oyida kelishib olgan bo'lib, qo'mita tomonidan o'sha yilning dekabriga kelib aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, Bazel qo'mitasining 2009 yil 8-9 dekabrda

yig'ilishida qator tavsiyaviy xarakterga ega hujjatlar («Bank sektoribarqarorligini oshirish», «Likvidlik xatarini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar») ma'qullandi¹². Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining maslahat hujjatlaridagi yangi tavsiyalar inqiroz saboqlarini hisobga olgan holda banklarda nazorat va xatarlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan.

Binobarin, bank kapitali va likvidligini tartibga solish xususida quyidagi tavsiyalar belgilandi:

- bank kapitali sifati va shaffofligini oshirish yuzasidan amaldagi standartlarni (Bazel II) qayta ko'rib chiqish, xususan, I darajali kapitalning muhim va etakchi shakllari sifatida oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish;

- sekyuritizatsiyalangan pozitsiyalar bo'yicha bank kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablarni belgilash;

- kapital etarliligini baholovchi qo'shimcha ko'rsatkich – leveraj (leverage ratio) koeffitsientini (o'z mablaglari va qarz mablaglari nisbati) kiritish. Bunda koeffitsientning o'rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me'yoriy darajasi 3 foiz etib belgilangan;

- davriy salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida iqtisodiy o'sish fazasida regulativ kapitalga qo'yilgan minimal talablardan oshadigan kapital zaxirasini shakllantirishga nisbatan qo'shimcha talablarni joriy etish, shuningdek, ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan zaxiralarni shakllantirish.

Bundan tashqari, qo'mitaning 2009 yil dekabrda tavsiyalariga ko'ra, bankning boshqa moliyaviy muassasalar oddiy aksiyalariga qo'yilmalari bank oddiy aksiyalarining 10 foizidan oshadigan bo'lsa, qo'yilmalarning 10 foizdan ortgan qismi hisobga olinmaydi¹³.

Bazel qo'mitasining 2010 yil iyul oyidagi yig'ilishida bank sektorini tartibga solish bo'yicha islohotlar dasturining asosiy elementlari kelishib olindi. Bunda Bazel qo'mitasining «Bazel III» bo'yicha 2009 yil dekabrda ma'qullangan talqini

¹² www.bis.org

¹³ www.bis.org – “Strengthening the resilience of the banking sector”, December 2009

biroz engillashtirdi. Jumladan, banklarga kapitalning 15 foizidan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarning oddiy aksiyalariga «sezilarli» (ya'ni ustav kapitalining 10 foizidan ko'p) investitsiyalar kiritishga, foyda solig'ini kamaytirish imkonini beruvchi aktivlarni (DTAs – deferred tax assets) shakllantirish va ipoteka kreditlariga xizmat ko'rsatish huquqiga (Mortgage servicing rights) ega bo'lishga ruxsat berildi. Bunda tijorat banki yuqoridagi uch vosita yalpi qiymatining bankning I darajali kapitali tarkibidagi oddiy aksiyalar qiymatining 15 foizidan oshadigan qismi 2018 yil 1 yanvardan hisobga olinmaydi¹⁴.

Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o'ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda. Kontrsiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi¹⁵.

Yana bir yangi tushuncha tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablardir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy o'zaro bog'langanligi sababli ularning tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab bo'luvchi banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi to'g'risida umumiy kelishuvga kelingan.

Demak, Bazel III ga ko'ra, banklar regulyativ kapitali ko'rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablar yig'indisidan iborat bo'ladi. Bazel III kelishuvining bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

¹⁴ www.bis.org – “Strengthening the resilience of the banking sector”, December 2009

¹⁵ www.bis.org – маълумотлари

Xalqaro Bazel qo‘mitasining kapital etarliligiga qo‘yadigan yangi talablarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

3.1.1-jadval

Bank kapitali etarliligi bo‘yicha Bazel-III talablarini

joriy etish muddatlari¹⁶

Ko‘rsatkich nomi	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.	2019y.
1	2	3	4	5	6	7	8
Asosiy I darajali kapital (Oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga minimal talab	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%
Maxsus zaxira kapitali				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Asosiy I darajali kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
I darajali kapitalga minimal talab	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab+ Maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Jadvaldan ma’lum bo‘ladiki, I darajali kapitalga minimal talab amaldagi 4 %dan 2013 yil 1 yanvarga kelib, 4,5 foizga, 2019 yil 1 yanvarga kelib esa 6 %ga etadi. Asosiy I darajali kapital esa (oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga nisbatan talab 2013 yildan boshlab, 3,5%, 2015 yildan buyon esa 4,5 % darajasida belgilanadi. Favqulodda holatlar uchun maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer) shakllantirilib, uning me’yoriy darajasi 2019 yilga kelib, 2,5% etib belgilanadi. Kontrsiklik zaxira kapitali (Countercyclical Capital Buffer) milliy sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich 2019 yilga kelib, asosiy I darajali kapitalning 2,5 %i miqdorida belgilanadi.

¹⁶ www.bis.org – “Basel III phase-in arrangements”, December 2012

Bazel-III da bank likvidligiga nisbatan ham yangi talablar belgilangan. Jumladan, xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi banklar uchun likvidlikni boshqarish bo'yicha qo'shimcha talablarni, xususan, yaqin 30 kun mobaynida bankning o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini baholash imkonini beruvchi minimal likvidlik (liquidity coverage ratio) koeffitsientini joriy etildi.

1. Likvidlikni qoplash koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio (LCR)) – 2015 yil 1 yanvardan boshlab¹⁷

$$LCR = (\text{yuqori sifatli aktivlar}) / (\text{30 kun mobaynida sof pul chiqimlari}) \geq 100\%$$

Shuningdek, Bazel qo'mitasi tomonidan bank faoliyatida uzoq muddatli likvidlikni tartibga solish maqsadida sof barqaror mablag'lar koeffitsientini (net stable funding ratio) joriy etish masalasi ham qo'yilgan bo'lib, bu borada yakuniy to'xtamga kelinmagan. Shunga qaramay, sof barqaror mablag'lar koeffitsientining yangicha variantini minimal standart sifatida 2018 yil yanvar oyidan kiritish ko'zda tutilgan.

2. Sof barqaror manbalar koeffitsienti (The Net Stable Funding Ratio (NSFR)) – 2018 yil 1 yanvardan boshlab¹⁸

$$NSFR = (\text{Mavjud barqaror manbalar}) / (\text{talab qilingan barqaror manbalarning foydalanilishi}) \geq 100\%$$


Bu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, «Bazel III» nomi bilan atalgan yangi standartlar amaldagi «Bazel II» talablarini inkor etmagani holda, uning yangi tahriri ham emas. Boshqacha aytganda, bu ikki maslahat hujjati bir paytning o'zida, parallel ravishda muomalada bo'ladi.

Bazel-III tavsiyalarini qo'llashdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlar:

¹⁷ www.bis.org – “Basel III phase-in arrangements”

¹⁸ www.bis.org – “Basel III phase-in arrangements”

- bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;
- risk-menejment va boshqaruv sifatini oshirish;
- banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.



3.1.1-rasm. Bazel-2 talablaridan Bazel-3 talablariga o'tishdagi o'zgarishlar¹⁹

¹⁹ www.bis.org – “Strengthening the resilience of the banking sector”, December 2009

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda
“2011–2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning
barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlarga erishishning
ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PQ-1438 qarori bilan qabul qilingan dasturda
ham bank nazoratini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning asosiy
yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Respublikamiz tijorat banklarining xalqaro Bazel talablariga asoslangan
bank kapital etarliligi koeffitsienti keyingi yillarda oshib borib, 2014 yil yakuni
bo‘yicha bank tizimida 23,8 foizni tashkil etdi, ya‘ni xalqaro me‘yordan deyarli 3
barobar yuqoridir. Xalqaro ekspertlarning fikricha, agar har bir tijorat banki
boshqaruv organlari tomonidan samarali nazorat tizimi tashkil etilmas ekan,
Markaziy bank nazorat organlari tekshirishlari kutilgan samarani bermaydi²⁰.
Shundan kelib chiqib, respublikamizda tijorat banklari tomonidan korporativ
boshqaruv asoslarini mustahkamlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz bank nazorati tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda
takomillashtirish va xalqaro Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalarini joriy etish
bo‘yicha Jahon bankining texnik yordam dasturi doirasida 2014 yilning 6 – 10
yanvar va 29 aprel – 10 may kunlari davomida respublikamizga tashrif buyurgan
missiyasi bilan birga tijorat banklarida korporativ boshqaruv sifati va
samaradorligini oshirish, operatsion va foiz xatari ustidan nazoratni kuchaytirish,
jamlanma nazoratni, moliyaviy hisobotlar va banklarni reytinglash amaliyotini
yanada takomillashtirish masalalari har tomonlama ko‘rib chiqildi²¹.

Bank nazoratini amalga oshirishdan asosiy maqsad bank mijozlari va
kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdir. Banklar faoliyati ustidan
nazoratning etarliligi va samaradorligi bank tizimi barqarorligini ta‘minlash va
banklarning to‘lovga qobilligini oshirishning asosiy omilidir. So‘nggi yillarda

²⁰ cbu.uz 2014 йилда пул-кредит соҳасидаги вазият ва монетар сиёсатнинг 2015 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари.

²¹ cbu.uz 2014 йилда пул-кредит соҳасидаги вазият ва монетар сиёсатнинг 2015 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари.

banklarning tanazzulga uchrash xavfining oshib ketganligi sababli bank faoliyati nazoratining uzluksiz amalga oshirilishi shartligini taqozo etadi. XX asrning 80 yillariga kelib esa bank nazorati tizimi xalqaro miqyosda shakllanishi boshladi va shu asnoda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tarkib topdi. Bank tizimining yuqori tezlikda rivojlanishi va integratsiyalashuvini hisobga olgan holda ushbu qo'mitaning talablari yildan-yilga ortib bormoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, respublikamiz tijorat banklarini nazoratini amalga oshirish juda ham muhim hisoblanadi. Sababi bank kapitalining tarkibiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi va uning samarali boshqarilishi natijasida, risk bo'yicha yo'qotishlarni minimal qoplashga, ikkinchidan esa yuqori darajada daromad olishga erishish muhim hisoblanadi. Shuning uchun bankning eng asosiy vazifasi "risk-foyda" qonuniyatini hisobga olgan holda operatsiyalarning riskliligi va foydaliligini o'zaro optimal nisbatda saqlashi lozim.

3.2. O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda xorij tajribalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasida davlatlar o'rtasidagi turli tafovutlarni, jumladan, iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va boshqa yo'nalishlarda keskin tus olayotganligini ko'rish mumkin. Mazkur tafovutlarning o'tgan bir necha o'n yillik ichida ayriy davlatlar o'rtasida qisqarishi, ayrimlarida yanada ortishi yuz berganligini kuzatish mumkin. Tezkor rivojlanish va yangilanish hukm surayotgan hozirgi davrda mamlakatni jahon rivojlanish darajasidan ortda qolishdan himoyalani, o'z iqtisodiyotini yuksaltirish, global ijtimoiy-siyosiy, ekologik-iqtisodiy va boshqa muammolarning tobora chuqurlashib ketishining olidini olish va ularni hal etishning samarali echimlarini izlab topish, eng optimal variantlarini ishlab chiqishga qaratilgan yaqin va uzoq kelajak uchun strategiyalarni tanlash hamda ularning jadal sur'atlar bilan amalga oshirilishiga erishish, bunda barchasiga oson, tez va yuqori samaradorlikda erishish

kalitini topish har bir davlat, ayniqsa, rivojlangan davlatlar ortidan etib olish uchun faol intilayotgan davlatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar dunyo davlatlari amaliyotida iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlari va mexanizmlaridan foydalanib kelinganligini ko'rishimiz mumkin. Ular ichida jahon amaliyotida yuqori samarali va istiqbolli deb qaralgan tajribalar boshqa davlatlar uchun muhim qo'llanma va andozaga aylanmoqda. Mazkur qo'llanmalar tarkibida eng muhimi va mamlakatni o'z taraqqiyoti bilan jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash imkonini beruvchi omil bu innovatsiyalar hisoblanadi.

Innovatsiyalar ilmiy-texnologik o'zgarishlar globallasuvi sharoitida amal qilish maydoniga ko'ra inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab olgan holda turli mamlakatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi keskin farqlarni bartaraf etishda uning yutuqlaridan keng foydalanish va har bir mamlakatning innovatsion taraqqiyoti orqali jahon sivilizatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o'z hissasi va ta'siriga ega bo'lish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, yuqori qudratlarga egaligini ko'rsatib va barcha davlatlarni tobora o'ziga rom etib borayotgan innovatsiyalarni amalga oshirishda tashkil etiluvchi innovatsiya faoliyati umumiy tarzda quyidagi ob'ektlarda namoyon bo'ladi:

- ixtirolar, nou-xau, ilmiy-texnik ishlanmalar asosida yangi ilmiy hajmdor mahsulotlarning tajriba-sanoat namunalarini yaratish, sanoat sinovlaridan o'tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash;

- mavjud texnologiyalarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan, tijorat nuqtai nazaridan samarali bo'lgan, mahalliy xom ashyo asosida yangi ilmiy hajmdor mahsulotlarni bozorga olib chiqish;

- inson, hayvon, o'simliklar kasalliklarini davolashning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, yangi turdagi dori-darmonlarni, ularning substansiyalarini va tibbiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish;

- tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo'jalik o'simliklarini etishtirish, ularning seleksiyasi va urug'chiligi sohasida va himoya preparatlarini ishlab chiqarishda samarali texnologiyalarini joriy etish;

- sanoat chiqindilarini hamda ikkilamchi resurslarni qayta ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish;

- yangi axborot texnologiyalarini, dasturiy vositalarni yaratish va ishlab chiqarishni kengaytirish;

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan huquqiy-tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv masalalarini hal qilish;

- ilm-fanning zamonaviy natijalarini yorituvchi original monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash, chop etish va o'quv jarayoniga joriy etish;

- innovatsiya faoliyatini kengaytirishga, intellektual faoliyat ob'ektlarini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan xalqaro seminarlar, konferensiyalar, ko'rgazmalarni tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan innovatsiya ob'ektlari ustida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar jamiyat ehtiyojlarini qondirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi, siyosiy-huquqiy, ekologik xavfsizligini oshirish hamda ularga doir muammolarni hal etish maqsadlari uchun xizmat qilishi lozimdir.

Shu munosabat bilan bugungi kundagi va istiqbolga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, dunyoning barcha davlatlarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda o'z kelajagini yaratish imkoniyatini ko'rmoqda:

1. Fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar.

2. Biotexnologiya va biomeditsina (agrobiotexnologiya; geobiotexnologiya; ekobiotexnologiya).

3. Eng yangi informatsion texnologiya va tizimlar (nano-bio-optoelektronika; fotonika; optoinformatika; dasturlashtirish; milliy informatsiya tizimini modellashtirish).

4. Energiya tejovchi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari (yangi energiya tejovchi texnologiyalar; yangi avlodlar energiya tizimi; ekoenergomonitring tizimi).

5. Butkul yangi materiallar (yangi avlodlar kompozitsiyasi; keramika; katalizatorlar; yuqori qattqlikdagi materiallar).

6. Yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi (KALS-texnologiyalar – yangi avlodlar ishlab chiqarish texnologiyalari orasida yaqin o‘n yilliklarda markaziy ahamiyat kasb etuvchi texnologiya, innovatsion mahsulotning hayotiylik siklining barcha bosqichlari oralig‘ida elektron kuzatuvni va ularning aniq bozorlardagi raqobat tebranishlariga tez moslashuvini ta‘minlovchi texnologiya; robotli texnika komplekslari; lazerla;, plazmali texnologiyalar).

7. Aviakosmik texnologiyalar, trasport va aloqa vositalarining yangi avlodlari (kosmik navigatsiya tizimlari; transportlarning yangi avlodlari; aloqalarning yangi avlodlari).

8. Mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari (yangi avlodlarning qurollanishi; terrorizmga qarshi belgilangan ikki marta ortiq texnologiya vositalari).

Yuqorida keltirilgan ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlar innovatsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish, innovatsion faollikni ta‘minlash, rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga yangicha yondashish zaruriyatini va talabini keltirib chiqaradi va uni amalga oshirish iqtisodiyotning texnologik talabi, mavjud ilmiy-texnikaviy zaxiralar, resurslar va salohiyatlar hamda ulardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi uyg‘unligida ta‘minlanishini talab etadi.

Bunda har bir davlat innovatsiya sohasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini amalga oshirishni mamlakatdagi mavjud umumiy salohiyat va imkoniyat, rivojlanish darajasi va yo‘nalishi, ob‘ektiv shart-sharoitlar asosida tashkil etadi.

Jumladan, MDH davlatlari rahbarlari Kengashi qarori bilan 2008 yil 14 noyabrda tasdiqlangan 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq O'zbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yo'nalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda:

- yoqilg'i-energetika sohasida;
- yangi transport magistrallarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bojxona, informatsion-logistik va servis ta'minotini ishlab chiqishda;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasida "yopiq" siklli innovatsion texnologiyalar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo'yicha oziq-ovqatning ekologik toza mahsulotlari bozorini shakllantirishda;
- maksimal darajada tabiiy gaz o'rnini egallovchi resurslar va resurs jamg'arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratishda;
- nanomahsulotlarning to'laqonli bozorini shakllantirishda;
- aholi uchun zamonaviy informatsionno-kommunikatsion xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlovchi informatizatsiya sohasida;
- kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirishda.

Bundan tashqari, har bir davlatda innovatsion rivojlanishda mavjud jo'g'rofiy-hududiy, ekologik-tabiiy va boshqa shart-sharoitlarga asoslangan yo'nalishlar ishlab chiqilishi yoki ayrim tanlanga yo'nalishlarga kuchliroq ustuvorlik berilishi ham mumkin. Masalan, jahon okeanini o'zlashtirish (masalan, Rossiya, Yaponiya, Amerika, Xitoy kabi davlatlar); er osti tabiiy boyliklarini qidirib topish (O'zbekiston, Rossiya va boshqa davlatlar); qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan samarali foydalanish (Afrika davlatlari, O'zbekiston va shu kabilar) shular jumlasidandir.

Innovatsiya sohasini rivojlantirish va ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga bo'lgan kuchli e'tiborni qaysi davlatda qanchalik yuksakligi va ahamiyatini jahon innovatsiya bozorida turgan o'rni va erishgan ko'rsatkichlari yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, bugungi kunda jahon bozorida ilmtalab mahsulotlar hajmi 2,5 trln. AQSH dollarini tashkil etib, mazkur summaning 39 %ini AQSH davlati mahsulotlari, 30 %ini – Yaponiya, 16 %ini – Germaniya davlati mahsulotlari tashkil etishi, jahonda rivojlangan 7 ta davlat makrotexnologiyalari mazkur bozor hajmining 80 %ini tashkil etishi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

BMT Rivojlanish Dasturi (BMTRD) loyihasi asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Konsepsiyasidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarning rivojlanishini muvofiqlashtirish qo'mitasida Fanlar Akademiyasi, vazirlik va idoralarning hamkorligi, mamlakatning etakchi olim va mutaxassislari ishtirokida 2012-2020 yillarda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning sakkizta ustuvor yo'nalishi belgilab olindi. Ular quyidagi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- demokratik huquqiy jamiyat, innovatsion iqtisodiyotning ma'naviy-marifiy va madaniy taraqqiyoti;
- energiya va elektr-energetika zaxiralarini tejash;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;
- zamonaviy agrotexnologiyalarning ekologik jihatlariga e'tibor qaratish va atrof-muhitni asrash;
- tibbiyot va farmakologiya;
- kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar;
- turpoq to'g'risidagi fan (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash).

Bunda fan va ilmiy imkoniyatlar darajasini oshira oluvchi, olingan natijalarni kelgusida qo'llash nuqtai nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan ishlar birinchi navbatda moliyalashtiriladi.

Umuman olganda, innovatsiya sohasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan keng foydalanish o'z samarasini berayotganligini bir qator davlatlar tajribalaridan ko'rdik. Bu esa har bir davlatning innovatsiya sohasini rivojlantirish va ilmtalab bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda va talabini oshirmoqda.

O'zbekiston davlati dunyo sivilizatsiyasi va taraqqiyotidan ayri yashay olmaydi. Shu sababli innovatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha o'z tajribasi, yo'nalishi va strategiyasiga ega bo'lsa-da, mazkur sohani rivojlantirish va unga bog'langan kelajak va yutuqlarga erishishda mazkur sohada jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklardan xabardor bo'lib borish, o'rganish va o'z amaliyotida kelajak-istiqbol uchun foydalanish ham zarur, ham foydadan holi bo'lmaydi.

Bunda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga kuchli e'tiborni qaratish muhim vazifa hisobalandi. Shu munosabat bilan innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda uning moliyaviy jihatlarini yaxlit holda o'rganish va undagi mavjud muammolarni aniqlash juda ham muhim sanaladiki, bu innovatsiya sohasida xorij tajribalarini o'rganish asosida mazkur muammolarga echim topishda katta ahamiyat kasb etadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida O'zbekistonda bugungi kunda innovatsiya faoliyatining rivojlanish holati, undagi mavjud shart-sharoitlar, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va unga bog'liq istiqbolli strategiyalar asosida hal etilishi dolzarb bo'lgan quyidagi muammolar aniqlandi:

– jahon innovatsiya tizimiga integratsiyalashuv darajasining pastligi, milliy innovatsion tizimning, eng avvalo, innovatsion biznes bilan hamkorlik qilishga yo'naltirilgan maxsus moliya institutlarining etishmasligi;

- innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun boshlang'ich kapitalning teshmasligi;
- davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi doirasida texnologik ustuvorliklarni tanlash va amalga oshirish tizimining past samaradorligi;
- jahon talablariga javob beruvchi huquqiy-me'yoriy bazaning shakllanmaganligi;
- mulk huquqlarini himoyalash amaliyotining yaxshi rivojlanmaganligi va u bo'yicha malakali, xalqaro sertifikatlarga ega bo'lgan mutaxassislarning etishmasligi hamda ularni tayyorlashga bo'lgan e'tiborning qoniqarli darajada emasligi;
- kadrlar muammosi: ilmiy kadrlarning qarib borishi, fanga iqtidorli yoshlarning kirib kelishi sustligi;
- innovatsion mahsulotlar yaratishda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar olib borish yuzasidan xorijlik tadqiqotchilar va ixtirochi-ishlab chiquvchilar bilan yaqindan va keng hamkorliklarni yo'lga qo'yish tizimining yaratilmaganligi;
- yirik yoki kichik korxonalarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha izlanishlarni olib borish saviyasining pastligi yoki imkoniyatining yo'qligi: yuqori malakali menejer-mutaxassislarning etishmasligi, texnologik rivojlanish va uni moliyalashtirishga mablag'larning etarli emasligi, o'z mahsulotining xalqaro darajadagi baho/sifat talablariga javob berishiga bo'lgan intilishning yo'qligi;
- ishlab chiqarish korxonalari bilan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida innovatsion hamkorlikni tashkil etish va uni amalga oshirishning qulay mexanizmi yaratilmaganligi;
- ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlar, korxonalar, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlab chiqarish bazasining ham man'an, ham jismonan eskirib ketganligi;

– ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi maxsus institutlar, korxonalar, oliy ta’lim muassasalarini zaruriy ilmiy-texnik, informatsion-huquqiy ma’lumotlar va yangiliklar bilan tezkor va to‘liq ta’minlash tizimining mavjud emasligi;

– olib borilgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalarining amalda ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan bog‘liq uzilishlar mavjudligi va uning samarali ijrosini ta’minlovchi mexanizmning mavjud emasligi;

– yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun juda kattaligi;

– tovar va xizmatlar bozori tarkibida innovatsion mahsulotlarni hisobga olish tizimining yaxshi rivojlanmaganligi va shu kabilar.

Yuqorida keltirilgan muammolar echimini ta’minlash, O‘zbekistonda qulay innovatsion tadbirkorlik muhitini yaratish, innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish, innovatsion tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquqlarini himoya qilish va shu asosda mamlakatda milliy innovatsiya tizimini barpo etish hamda uni rivojlantirish maqsadida innovatsiya sohasida ulkan tajribalarga erishgan xorij davlatlari tajribalaridan kelib chiqib ular amaliyotida erishgan yutuqlarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion yangiliklar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda quyidagilar ta’minlanishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma’nan eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish;

- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish.

2. Mamlakatda innovatsion infratuzilma – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar)ni tashkil etish lozim.

3. Innovatsiya sohasida kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirishga, ilmiy salohiyatli kadrlarning ijod qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ular mehnatini rivojlangan davlatlardagidan kam bo'lmagan darajada rag'batlantirish tizimini yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

4. Mamlakatda qisqa va o'rta muddatli prognozlarga qo'shimcha ravishda uzoq muddatli (20-30 yillik) ilmiy-texnik, innovatsion-texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish bashoratlarini ishlab chiqish zarur.

5. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun iqtidorli yosh olimlarning kirib kelishi oqimini kuchaytirish, xorijdan kuchli mutaxassis-tadqiqotchilarni jalb etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Xorij davlatlari tajribalaridan kelib chiqib (masalan, MDH davlatlari misolida Fundamental tadqiqotlar Rossiya fondi, Rossiya gumanitar ilmiy fond, Rossiya texnologik rivojlanish fondi, Ilmiy-texnik sohada kichik shakldagi korxonalar rivojlanishiga ko'maklashish fondi, Belorusiya fundamental tadqiqotlar Respublika fondi va sh.k.), mamlakatda innovatsiya faoliyatining yanada tezroq va samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

7. Innovatsion tadqiqotlar olib borishda davlat asosiy buyurtmachi sifatida maydonga chiqishi lozim.

8. Innovatsiya jarayonlari sohasidagi xalqaro aloqalarni tartibga solib borish va rivojlantirish zarur.

9. Kichik innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

10. Innovatsiya faoliyatining xalqaro talablarga javob beruvchi qonuniy bazasini yaratish va mustahkamlash maqsadida hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish lozim.

11. Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan foizsiz kreditlar orqali uzoq muddatli moliyalashtirish, shuningdek, davlat bojlaridan ozod qilish va soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur.

12. Ishlab chiqarish va moliyaviy resurslar aylanishini qisqartirishga qaratilgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

13. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar ustida ishlash uchun zaruriy barcha informatsion-huquqiy ma’lumotlar va yangiliklar bilan ta’minlovchi maxsus ilmiy-texnik informatsion markazlarni tashkil etish lozim.

Yuqorida keltirilgan taklif-tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish, yangi (fundamental va amaliy) bilimlar, yangi texnologiyalar va ularni ishlab chiqarishda jadal o‘zlashtirish usullarini egallash, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida, rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan muntazam foydalanish, bu sohada avvalo, MDH mamlakatlari bilan hamkorlikni kuchaytirib borish, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyasidan imkon qadar keng foydalanishga intilish zarur. Bugungi kunda texnologik jihatdan ilg‘or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan bo‘lib, mamlakatimiz unga teng huquqli hamkor bo‘lib kirishi, ayrim yo‘nalishlarda esa etakchilik uchun kurashishi lozim, buning uchun esa milliy texnologik daraja etarlicha yuqori bo‘lishiga erishish zarur. Bu

mamlakatimizda innovatsiya sohasini yanada rivojlantirish va uni moliyalashtirishga bo'lgan talabni oshiradi.

III bob bo'yicha xulosa

1. Bugungi kunda jahon amaliyotida dunyoning barcha davlatalarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda o'z kelajagini yaratish imkoniyatini ko'rmoqda: fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar; biotexnologiya va biomeditsina; eng yangi informatsion texnologiya va tizimlar; energiya tejovchi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari; butkul yangi materiallar; yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi; aviakosmik texnologiyalar, transport va aloqa vositalarining yangi avlodlari; mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari.

2. 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq O'zbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yo'nalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda: yoqilg'i-energetika sohasi; yangi transport magistrallarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bojxona, informatsion-logistik va servis ta'minotini ishlab chiqish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasida "yopiq" siklli innovatsion texnologiyalar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo'yicha oziq-ovqatning ekologik toza mahsulotlari bozorini shakllantirish; maksimal darajada tabiiy gaz o'rnini egallovchi resurslar va resurs jamg'arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratish; nanomahsulotlarning to'laqonli bozorini shakllantirish; aholi uchun zamonaviy informatsion-kommunikatsion xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlovchi informatizatsiya sohasi; kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirish.

3. Olib borgan tadqiqotlari asosida O‘zbekistonda bugungi kunda innovatsiya faoliyatining rivojlanish holati, undagi mavjud shart-sharoitlar, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning imkoniyatlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj va unga bog‘liq istiqbolli strategiyalar asosida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar aniqlandi hamda ularni hal etishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion rivojlanishni moliyaviy ta'minlashda banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning o'rni yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi.

2. Innovsiya faoliyati – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat.

3. Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun, eng avvalo, quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir: davlat innovatsiya siyosati, investitsiya salohiyati, innovatsiya sohasi, innovatsiya infratuzilmasi, innovatsiya dasturi.

4. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda innovatsiya siyosati quyidagi bosqichda amalga oshiriladi: innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish; innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ishlab chiqish; innovatsion faollikni yanada kuchaytirishga qaratilgan maqsadlarning samarali amalga oshirilishi bo'yicha amaliy harakatlar.

5. Innovatsiya sohasi eng rivoj topgan AQSH davlatida barcha ishlanmalar va yangiliklarni moliyalashtirish quyidagi proporsiyada amalga oshiriladi: 35 %i – federal byudjetdan (200 mlrd. AQSH dollari atrofida); 60 %i – ishlab chiqarish kompaniyalarining o'z mablag'lari hisobiga; 5 %i – shtatlar hukumatlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, kollejlari, universitetlar va xususiy fondlar

mablagʻlari hisobiga. AQSH tajribasi tasdiqlashicha, bugungi kunda ITTKIlariga sarflangan 1 dollar YAIMning 9 dollarga oʻsishiga olib kelmoqda.

6. Evropa davlatlarida innovatsiya sohasidagi holat va institutsional shart-sharoitlar qulayliklarini aniqlash maqsadida 2006 yildan boshlab Evropa innovatsiya jadvali (European Innovation Scoreboard (EIS)) koʻrsatkichlaridan foydalanib kelinadi va unda Evropa Ittifoqiga aʼzo boʻlgan 27 ta davlat, shuningdek, Xorvatiya, Turkiya, Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, SSHA, Yaponiya va Rossiya va boshqa MDH davlatlari koʻrsatkichlari baholanadi.

7. Oʻzbekiston bugungi kunda MDH va boshqa xorij davlatlari, xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiya sohasini rivojlantirish boʻyicha strategik hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda va MDH davlatlari singari 2012-2020 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Konsepsiyasini ishlab chiqdi va uning 1-bosqich ijrosi amalga oshirilmoqda.

8. Bugungi kunda jahon amaliyotida dunyoning barcha davlatalarida quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda hamda oʻz kelajagini yaratish imkoniyatini koʻrmoqda: fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar; biotexnologiya va biomeditsina; eng yangi informatsion texnologiya va tizimlar; energiya tejovchi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari; butkul yangi materiallar; yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi; aviakosmik texnologiyalar, transport va aloqa vositalarining yangi avlodlari; mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari.

9. 2020 yilgacha boʻlgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq Oʻzbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yoʻnalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda: yoqilgʻi-energetika sohasi; yangi transport magistrallarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bojxona, informatsion-logistik va servis taʼminotini ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bazasida “yopiq” siklli innovatsion texnologiyalar bo‘yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo‘yicha oziq-ovqatning ekologik toza mahsulotlari bozorini shakllantirish; maksimal darajada tabiiy gaz o‘rnini egallovchi resurslar va resurs jamg‘arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratish; nanomahsulotlarning to‘laqonli bozorini shakllantirish; aholi uchun zamonaviy informatsionno-kommunikatsion xizmatlarga ega bo‘lishni ta’minlovchi informatizatsiya sohasi; kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirish.

Olib borgan tadqiqotlari asosida O‘zbekistonda xorij tajribalariga suyanan holda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish va rivojlantirishga qaratilgan quyidagi taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion yangiliklar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda quyidagilar ta’minlanishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma’nan eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish;
- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish.

2. Mamlakatda innovatsion infratuzilma – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta’sir ko‘rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o‘quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar)ni tashkil etish lozim.

3. Innovatsiya sohasida kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirishga, ilmiy salohiyatli kadrlarning ijod qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va

ular mehnatini rivojlangan davlatlardagidan kam bo'lmagan darajada rag'batlantirish tizimini yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

4. Mamlakatda qisqa va o'rta muddatli prognozlarga qo'shimcha ravishda uzoq muddatli (20-30 yillik) ilmiy-texnik, innovatsion-texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish bashoratlarini ishlab chiqish zarur.

5. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun iqtidorli yosh olimlarning kirib kelishi oqimini kuchaytirish, xorijdan kuchli mutaxassis-tadqiqotchilarni jalb etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Xorij davlatlari tajribalaridan kelib chiqib (masalan, MDH davlatlari misolida Fundamental tadqiqotlar Rossiya fondi, Rossiya gumanitar ilmiy fond, Rossiya texnologik rivojlanish fondi, Ilmiy-texnik sohada kichik shakldagi korxonalar rivojlanishiga ko'maklashish fondi, Belorusiya fundamental tadqiqotlar Respublika fondi va sh.k.), mamlakatda innovatsiya faoliyatining yanada tezroq va samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

7. Innovatsion tadqiqotlar olib borishda davlat asosiy buyurtmachi sifatida maydonga chiqishi lozim.

8. Innovatsiya jarayonlari sohasidagi xalqaro aloqalarni tartibga solib borish va rivojlantirish zarur.

9. Kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

10. Innovatsiya faoliyatining xalqaro talablarga javob beruvchi qonuniy bazasini yaratish va mustahkamlash maqsadida hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining "Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish lozim.

11. Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan foizsiz kreditlar orqali uzoq muddatli moliyalashtirish, shuningdek, davlat bojlaridan ozod qilish va soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur.

12. Ishlab chiqarish va moliyaviy resurslar aylanishini qisqartirishga qaratilgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

13. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar ustida ishlash uchun zaruriy barcha informatsion-huquqiy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlovchi maxsus ilmiy-texnik informatsion markazlarni tashkil etish lozim.

Ushbu taklif-tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi mamlakatda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 may.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992 yil 7 avgustdagi "Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2003 il 20 iyundagi "Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tomonidan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni

rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3860-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-916-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4053-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PF-4058-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1166-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barkarorligini oshirish xamda yukori xalkaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–1536-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyundagi “Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 26-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 yanvarda “Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg‘armalar grantlari bo‘yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 31-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi “Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida”gi Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 7 avgustdagi “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 173-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 may “Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 144-sonli Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyun “O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 166-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Malayziya Hukumati o‘rtasida tuzilgan “Fan va texnologiya sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi Anglashuv Memorandumi. 2008 yil 17 noyabr.

24. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Braziliya Federativ Respublikasi Hukumati o‘rtasida tuzilgan “Texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitim. 2009 yil 28 may, Braziliya davlati.

25. O‘zbekistonning BMT bilan hamkorlik asosidagi 2010-2015 yillarga mo‘ljallangan “Inovatsiya siyosati va texnologiyalar transferi sohasida qo‘llab-quvvatlash” nomli loyihasi.

26. “MDH qatnashchilari – davlatlarining innovatsiya faoliyati uchun informatsiya” nomli Bitim. 2011 yil 19 may.

27. O‘zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Konsepsiyasi.

28. Standart otchetnosti po nauchnym issledovaniyam i razrabotkam (Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development - the Frascati Manual, 193 str.), 150 str., OESR, 2002.

III. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

29. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. - T.: “O‘zbekiston”, 2005.

30. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. – T.: O‘zbekiston, 2009. – B. 36.

31. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – T: O‘zbekiston, NMIU, 2010, 78 b.

32. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 36 b.

33. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. – T.: O‘zbekiston, 2013. – 64 b.

IV. Asosiy adabiyotlar

34. Baynev V. F., Saevich V. V. Perexod k innovatsionnoy ekonomike v usloviyax mejsosudarstvennoy integratsii: tendensii, problemy, belorusskiy opyt: Monografiya. – Mn.: Pravo i ekonomika, 2007. –180 s.

35. Balabanov I.T. Innovatsionnyy menedjment. – Spb.: Piter, 2001. – 254 s.

36. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskii slovar. – M.: Knijnyy mir, 2000. – 451 s.

37. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –144 b.

38. Глуценко V.V., Глуценко I.I. Issledovanie sistem upravleniya: sotsiologicheskie, ekonomicheskie, prognoзные, planovye, eksperimentalnye issledovaniya. 2-e izd. – M.: OOO NPS «Крылья», 2004. 232 s.

39. Кадыров A.M., Sevlikyans S.G., Otto O.E., Axmedova A.T. Informatsionno-innovatsionnoe razvitie ekonomiki Uzbekistana. – T.: Iqtisodiyot, 2011. 136 s.

40. Медынский V.G. Innovatsionnyy menedjment. – M.: INFRA-M, 2002.

41. Oleg Figovskiy. Opyt innovatsionnogo razvitiya za rubejom: <http://park.futurerussia.ru>.

42. Popova V.L. Upravlenie innovatsionnymi proektami. Uchebnoe posobie. – S.: INFRA-M, 2009. –337 s.

43. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. –110 b.

44. Fatxutdinov R.A. Innovatsionnyy menedjment. – Spb.: Piter, 2004.

45. Folomev A.N. Innovatsionnyy tip razvitiya ekonomiki Rossii. – M.: RAGS, 2005. –584 s.

46. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

47. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010.

48. Gorlova I. Farmg'inki stran SNG: itog 2012 goda. // Jurnal "Farmatsevticheskaya otrasl", fevral, 2013. - №1, S. 106-107.

49. Kuznetsov B. T. Investitsii: ucheb. Posobie dlya studentov vuzov, obuchayuyixsya po napravleniyu podgotovki «Ekonomika». – M.: YUNITI-DANA, 2006. 414 s.

50. “Soliq-info” haftalik ijtimoiy-iqtisodiy gazetasi. 2012 yil 15 dekabr, №50. – B. 1.

51. Suyunov D.X., Ravshanov M.N., Butabaev M.SH. Korporativnoe upravlenie xozyaystvuyuyix sub’ektov. – T: Akademiya, 2006. – 485 s.

52. Egamberdiev E., Xo‘jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: TMI, 2003. –186 b.

53. G‘ozibekov D., Nosirov E.O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 100 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

54. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2000-2011 yillar bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar ma’lumotlari.

55. Rossiya Federatsiyasining Davlat statistikasi Federal xizmatining “Rossiya yillik statistika 2012 statistik to‘plami”.

56. Indikatorы nauki, texnologiy i innovatsionnoy deyatelnosti Respubliki Uzbekistan. Komitet po koordinatsii razvitiya nauki i texnologiy pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan: Statisticheskiy sbornik. – T., 2011. – Str. 120-124.

57. European Commission. European Trend Chart on Innovation. Methodology Report on European Innovation Scoreboard 2005.

58. European Innovation Scoreboard. Comparative analysis of innovation performance. 2006.

59. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. –436 r.

60. Innovation Union Scoreboard 2010. The Innovation Union's performance scoreboard for Research and Innovation. - European Commission, 2011.

Internet saytlari

- <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)
- <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
- <http://www.uzscience.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi)
- <http://worldbank.org/indicator> (Vsemirnyy Bank)
- <http://occd.org> (Organizatsiya Ekonomicheskogo Sotrudnichestva i Razvitiya)
- <http://www.economy.gov.ru> (Ministerstvo Ekonomiki Rossiyskoy Federatsii).